1) ko'ngil ayniydi 2) qorinning pastki qismida og'riq paydo bo'ladi 3) qorinning yuqori qismida og'riq paydo bo'ladi 4) og'iz, til quriydi 5) tanglayning shilliq pardasi sarg'ayadi 6 qusadi
A) 1,2 3 B) 1,3 6 C) 3,4 1 D) 4,51
114. Me'da-ichaklarning yuqumli kasalliklarini aniqlang?
A) salmonelloz, butulizm B) ichburug', qorin tifi;
C) vabo, dizenteriya D) barchasi.
115. Virusli gepotitning B turi qanday yuqadi?
A) zararlangan taomlar,
B) oziq, hovuz suvlarini qaynatmasdan istemol qilishdan,
C) stirillanmagan shprits va ignalar orqali,
D) shu kasallikni yengil turlari bilan xastalangan odamdan qon olib quyish natijasida, stirillanmagan shprits va ignalar orqali,
116. A, B, C gepatit viruslarining yuqish yo'llarini belgilang.
1) zararlangan ovqat; 2) idish; 3) qaynatilmagan suv; 4) yaxshi sterillanmagan shprits; 5) kasal odam qonini quyish
A) A- 1, 2, 3; B va C- 4,5 B) A - 3, 4; B va C-1,2,5
C) A - 4, 5; B va C-1,2,3 D) A, B-4,5; C-1,2, 3
117. Sariq kasalligida nima uchun odamning ko'zi va terisi sarg'ayadi. Chunki.....
A) sariq kasalligida jigar hujayralari emirilmaydi, jigarning to'siqlik roli pasayadi.
B) ko'z va terida pigment ko'payadi
C) jigarda ishlangan o't suyuqligi o'n ikki barmoqli ichakka quyilmay, bevosita qonga o'tadi
D) o't suyuqligi ko'p ishlab chiqilib, ichakda qayta qonga so'riladi.
118. Gijja kasalliklarining asosiy belgilarini aniqlang?

1) qorinning o`ng tomonida og`riq paydo bo`ladi, 2) qorinda vaqti-vaqti bilan og`riq paydo bo`ladi, 3) rangi oqarib sarg`ayadi, 4) ich ketishi, 5) ozib quvvatsizlanadi, 6) ko`ngil ayniydi

A) 1,2,3,5, B) 2,3,4,5, C) 3,4,5,6, D) 1,4,5,6

119. Nos chekuvchilarda qaysi kasalliklar ko`p uchraydi?

1) og`iz bo`shlig`i raki; 2) qizilo`ngach raki; 3) o`n ikki barmoqli ichak raki; 4) me`da raki; 5) yo`g`on ichak raki; 6) o`pka raki.

A) 1, 2, 4 B) 1, 3, 4 C) 1, 4, 5 D) 2, 5

120. Nos tarkibidagi zaxarli moddalar til ostidagi qon tomirlariga so`rilib ... kabi muhim organlarni zaxarlaydi.

1) o`pka; 2) yurak; 3) miya; 4) jigar; 5) buyrak; 6) taloq

A) 2,3,4 B) 1,2,6 C) 1,5,6 D) 1,3,4

VII BOB. MODDALAR VA ENERGIYA ALMASHINUVI

1. Moddalar almashinuvi deganda ... ?

A) kislora va karbonat angardria almashinuvi tushiniladi,

B) tuz va suvlar almashinuvi,

C) odam tashqi muhitdan ovqat va suv qabul qilishi, organizmda uning o`zgarishi, hazm qilishi, hosil bo`lgan qoldiq moddalarning tashqi muhitga chiqarilishi,

D) ovqat tarkibidagi moddalarning boshqa moddalarga aylanishi,

2. Moddalar almashinuvi qanday jarayonlar tufayli amalga oshadi?

A) sintez reaksiyalari asosida,

B) oziqlanish, nafas olish jarayonida,

C) oziqlanish, nafas olish, qon aylanish,

D) assimilyatsiya va dissimilyatsiya orqali,

3. Moddalar almashinuvi natijasida hosil bo`ladigan organizm uchun zararli bo`lgan moddalarni belgilang.

A) siydik kislotasi, azot, aminokislota, uglevod, oqsillar

B) siydik kislotasi, kislorod, aminokislota, kreatin

C) azot, siydik kislotasi, kislorod, karbonat angidridi, mochevina

D) siydik kislotasi, azot, mochevina, kreatin, karbonat angidridi

4. Organizmdagi moddalar almashinuvi natijasida hosil bo`lgan zararli moddalarni zararsizlantiruvchi organni belgilang

A) oshqozon osti bezi, B) buyrak, C) jigar, D) taloq

5. Assimilyatsiya jarayonining organizmda tutgan o`rni qaysi javobda to`g`ri berilgan

A) hujayralarning tarkibiy qismlari yangilanadi,

B) hujayralar ko`payadi,

C) yosh organizmlarning o`sish va rivojlanishini ta`minlaydi,

D) energiya hosil bo`ladi, qoldiq moddalar ayirish organlari orqali tashqariga chiqariladi,

E) A,B,C to`g`ri

6. Nima sababdan keksalarning terisi salqi, yuzlarida ajin paydo bo`ladi, tana muskullari b`shashib, ularning hajmi kichrayadi, qorni osilib qoladi?

A) dissimilyatsiya jarayoni kuchaygani uchun,

B) assimilyatsiya jarayoni kuchaygani uchun,

C) qarigani uchun,

D) organizm organ va to`qimalar toliqqani uchun,

7. Ovqat tarkibidagi qaysi moddalar energiya hosil qilmaydi ?

A) oqsillar, B) yog`lar,

C) uglerodlar, D) mineral tuzlar, suv, vitaminlar,

8. Sifatli oqsillar qanday oziq-ovqat tarkibida bo`ladi?

A) mevalarda, sabzavotlarda,

B) hayvon, parranda maxsulotlarida,

C) parranda tuxumida, bali yog`i va ikrasida

D) o`simlik maxsulotlarida,

9. Sifatsiz oqsillar qanday maxsulotlar tarkibida bo`ladi?

A) mevalarda, sabzavotlarda, o`simlik maxsulotlarida

B) hayvon, parranda maxsulotlarida,

C) parranda tuxumida,

D) baliq yog`i va ikrasida

10. Qon tarkibida normada qancha miqdorda glyukoza bo`lishi kerak?

A) 1%, B) 5%, C) 10-20%, D) 80-120 mg,

11. Organizmda ortiqcha uglerod nimaga aylanadi?

A) shakarga, B) kraxmalga,

C) glyukogenga, D) polisaxaridga,

12. Odam meyorida ovqat iste`mol qilsa-yu, suv iste`mol qilmasa necha kun yashaydi? (tana massasi necha % kamaygunga qadar yashashi mumkin)

A) 40-45 kun, 20-22% kamaysa halok bo`ladi,

B) 30-35 kun, 30-40% kamaysa halok bo`ladi,

C) 20-22% tana massasi kamaysa halok bo`ladi, bir hafta ichida,

D) 90 kun, 30-40% kamaysa halok bo`ladi,

13. Odam mutlaqo ovqat iste`mol qilmasa, lekin suvni meyorida iste`mol qilib tursa qanday hodisa kuzatiladi?

A) 40-45 kun yashaydi, tana massasi 40% kamaygungacha,

B) 30-35 kun yashaydi, tana massasi 30-35% kamaygungacha,

C) 20-22% tana massasi kamayguncha, 40-45 kun yashaydi,

D) 10 kun yashaydi, tana massasi 40% kamaygungacha,

14. Katta yoshdagi odamning bir kecha-kunduzdagi suvga ehtiyoji qancha?

A) 3-4 .L B) 5-6 .L C) 7-8 .L D) 2-3 .L

15. Organizmga yod moddasi yetishmasa qaysi bezning faoliyati buziladi, qanday kasallik kelib chiqadi

A) gipofiz meksidema,

B) ayrisimon bez, bazidov,

C) buyrak ucti beziga miokard,

D) qalqonsimon bez, bo`qoq

16. Vitaminlarni odam organizmi uchun muhim modda ekanligini aniqlagan olim nomi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan
 A) K.Funk, 1912, B) N.I.Lunin, 1880, C) N.Gryu, 1936, D) Guk, 1965,
17. Vitamin so'zi kim tomonidan qachon fanga kiritilgan?
 A) K.Funk, 1912, B) N.I.Lunin, 1912, C) N.Gryu, 1936, D) Guk, 1965,
18. Vitaminlarning qancha turi bor?
 A) 5 ta, B) 8 ta, C) 11 ta, D) 40 tadan ortiq,
19. Avitaminoz kasalligi qachon kelib chiqadi?
 A) vitamin A yetishmasa,
 B) biror vitamin yetishmasa,
 C) odam organizmida biror vitamin mutloqo yo'qolsa,
 D) Agruppa vitaminlar yetishmasa,
20. Agar odam organizmida biror vitamin mutloqo yo'qolsa, kamaysa, meyoridan ortib ketsa bu jarayonlar qanday ataladi?
 A) avitaminoz, gipovitaminoz, gipervitaminoz,
 B) gipovitaminoz, avitaminoz, gepotoniya,
 C) gipertoniya, avitaminoz seroz,
 D) shapko'rlik, holsizlik, falajlik,
21. Yog'da eruvchi vitaminlarga qaysi vitaminlar kiradi?
 A) A,D,E,K, B) B guruh K,C,PP C) A,D,C, D) D,A,P,
22. Suvda eruvchi vitaminlar qatorini aniqlang
 A) A,B,D, B) B guruh C,PP, C) A,D,C, D) D,A,P,
23. Yog'da (1) va suvda (2) eriydigan vitaminlarni ajrating.
 a) PP; b) C; c) A; d) E; e) D; f) B_i; j) K
 A) 1 - a, b, f; 2 - c, d, e, j B) 1-c, d, e, j; 2-a,b,f
 C) 1-a,c,d,f;2-b,e,j D) 1-c, d, f, j; 2 - a, b, e
- 24.. Vitamin A yetishmasa qanday o'zgarishlarga olib keladi?
 1. teri quruqlashib yoriladi, 2. oyoq qo'l muskullari uyushib og'riydi, 3. nafas yo'llari, oshqozon ichak ichki qavati yallig'lanadi, 4. holsizlik, tez charchash, 5. ko'rish o'tkirligi pasayadi, 6. aqliy faoliyati pasayadi, 7. bolalar o'smirlarning o'sish va rivojlanishi susayadi,
 8. beri-beri kasalligi vujudga keladi(uzoq vaqt yetishmasa)
 A) 1,2,4,5,6,7,8, B) 1,3,5,7, C) 1,2,4,6, D) 2,4,6,8,
25. Ko'zning ravshanligini ta'minlash, ranglarni yaxshi ajatish, teridagi yaralarning tuzalishi, bolalarning o'sishi va rivojlanishida muhim o'rin tutadigan vitaminni aniqlang.
 A) D B) A C) PP D) B1
26. A vitamini qaysi mahsulotlarda bo'lmaydi?
 1) baliq yog'i 2) tuxum sarig'i 3) guruch po'stlog'i 4) loviya 5) jigar 6) yong'oq
 7) karam 8) sabzi
 A) 1,2,3,4 B) 2,3,4,5 C) 3,4,6,7 D) 1,2,5,8
27. A vitamini quyidagi jarayonlarning qaysi birlarini boshqaradi (a) va qaysi birlariga ta'sir qilmaydi (b) ? 1) ko'z o'tkirligini ta'minlash 2) organizmning

oʻsishi va rivojlanishini boshqarish 3) aqliy ish faoliyatining yaxshi boʻlishini taʼminlash

4) moddalar almashinuvini boshqarish 5) asos hujayralarining rivojlanishini boshqarish 6) epiteliy toʻqimasining normal funksional holatini boshqarish

A) a-1,2,6 b-3,4,5 B) a-1,2,5,6 b-3,4

C) a-2,3,4 b-1,5,6 D) a-3,4 b-1,2,5,6

28. A vitamin

1-terining ustki qavati, nafas yoʻllari, hazm yoʻllari ichki shilliq qavatining yangilanishini taʼminlaydi; 2-oqsil va uglevod almashinuvida qatnashadi; 3-markaziy nerv sistemasida qoʻzgʻalish va tormozlanish jarayonlarini normal oʻtishini taʼminlaydi; 4-Ca va P almashinuvida qatnashadi; 5-koʻz oʻtkirliги yaxshi boʻlishini taʼminlaydi; 6-qon ivish jarayonida qatnashadi; 7-odam organizmining oʻsishi va rivojlanishida ahamiyatga ega; 8-hujayralarning boʻlinib koʻpayishida ahamiyatga ega.

A) 1,2,5,7 B) 1,3,4,8 C) 1,5,7,8 D) 1,3,5,6,7

29. Odam organizmida qaysi vitamin yetishmasligi natijasida teri quruqlashib yoriladi, nafas yoʻllari va oshqozon-ichak ichki qavatining yalligʻlanishi kasalliklari yuzaga keladi?

A) A vitamini B) K vitamini C) B vitamini D) B1 vitamini

30 Qaysi vitamin yetishmasligi natijasida organizmda shapkoʻrlik kasalligi paydo boʻlishini belgilang

A) C, B) A, C) B1, D) B6

31. A vitamini yetishmasa qaysi retseptorlarning faoliyati buziladi?

A) proprioretseptorlar, B) hid bilish,
C) harakat, D) kolbacha va tayoqchasimon

32 B1 vitamini qaysi jarayonlarda muhim rol oʻynaydi?

1. qoʻzgʻalish va tormozlanish jarayonlarning normal oʻtishida, 2. odamning aqliy faoliyatining yaxshi boʻlishida, 3. organizmning oʻsishi, rivojlanishida, 4. uglevodlar almashinuvida

A) 1,2, B) 2,3, C) 3,4, D) 1,4

33 Bolalar va oʻsmirlar organizmining oʻsishi va rivojlanishi qaysi vitamin yetishmasligi natijasida susayadi?

A) A, B) B1, C) B2, D) B6

34. Ovqatda qanday vitamin boʻlmasligi oqibatida beri-beri deb ataluvchi kasallik paydo boʻladi?

A) vitamin A, B) vitamin B2, C) vitamin D, D) vitamin B1

35. Qaysi kasallik umumiy holsizlik, tez charchash bilan ajralib turadi?

A) raxit, B) singa, C) dermatit, D) shapkoʻrlik

36. Baliq moyida qaysi vitaminlar boʻladi?

A) A va D, B) D va B1, C) B1 va C, D) B2 va B6

37. Organizmda vitamin B1 yetishmasa qanday oʻzgarishlar va kasalliklar kelib chiqadi?

1) teri quruqlashib yoriladi, 2) oyoq qoʻl muskullari uvishib ogʻriydi,

- 3) nafas yo'llari oshqozon ichak ichki qavati yallig'lanadi, 4) holsizlik tez charchash,
- 5) ko'rish o'tkirligi pasayadi, 6) aqliy faoliyati pasayadi, 7) bolalar- o'smirlarning o'sish va rivojlanishi susayadi, 8) beri-beri kasalligi vujudga keladi,
 A) 1,2,4,5,6,7,8, B) 1,3,5,7, C) 1,2,4,6, D) 2,4,6,8,
38. B guruh vitaminlariga qaysi vitaminlar kiradi?
 A) tiamin, B) riboflavin,
 C) B6, B12, B15, D) barchasi to'g'ri
39. Nerv tolalari falajlanib terida sezuvchanlik oldiniga kuchayib so'ng yo'qoladi, oyoq-qo'l harakati kuchsizlanadi, oyog'ini yaxshi ko'tara olmaydi, qadami kalta-kalta, xuddi oyog'ida kishan solingan odamga o'xshab yuradi, bu belgilar qaysi vitamin yetishmasa kelib chiqadi, kasallikning nomi qanday nomlanadi?
 A) B1- beri-beri, B) B2- diareya,
 C) PP-demensiya, D) PP-dermatit,
40. Odamning aqliy faoliyatini boshqaruvchi vitamin va gormonlarni ko'rsating.
 A) D vitamini, paratgormon B) C vitamini, glyukokortikoid gormoni
 C) C vitamini, tiroksin gormoni D) B vitamini, tiroksin gormoni
41. Organizmda C vitamini yetishmasa qanday kasallik kelib chiqadi?
 A) shapko'rlik, B) singa, C) beri-beri, D) raxit,
42. Quyidagi xastalıklar qaysi vitaminlarning yetishmasligidan kelib chiqadi?
 1. singa, 2. raxit, 4. beri-beri, 5. shapko'rlik, a) D vitamini, v) A vitamini, g) B1 vitamini, d) C vitamini
 A) 1-d, 2-a, 4-g, 5-v, B) 1-a, 2-d, , 4-v, 5-g
 C) 1-d, 2-b, 4-v, 5-g, D) 1-g, 2-v, 4-d, 5-a
43. Temir moddasi hujayralarda ... ishtirok etadi
 A) gazlar almashinuvida, B) moddalarning oksidlanish jarayonida,
 C) endokrin bezlarning faoliyatida, D) A,B
44. Quyosh nuri ta'sirida qanday vitamin hosil bo'lishini belgilang
 A) C, B) A, C) B1, D) D
45. Qaysi moddalar hayotiy jarayonlarning o'tishida muhim rol o'ynaydi, lekin energiya hosil qilmaydi? 1) oqsillar, 2) yog'lar, 3) vitaminlar, 4) uglevodlar, 5) natriy xlorid, 6) suv, 7) kalsiy fosfat, 8) glyukoza
 A) 1,3,7,8, B) 2,4,5,8, C) 3,5,6,7, D) 1,6,7,8
46. Qaysi vitamin yetishmaganda, xuddi odamning oyog'iga kishan solingandek yuradi?
 A) B6, B) B2, C) A, D) B1
47. Qon hosil bo'lishida ishtirok etuvchi vitamin va uning tarkibidagi element?
 A) D; Fe; B) C; Mg; D) B12; Co;
48. Qon ivishda qaysi vitamin muhim rol o'ynaydi ?
 A) B1; B) PP; C) K; D) A
49. Kaltsiy va fosfor almashuvini boshqaradigan vitamin va garmonlarni ko'rsating?
 A) D vitamini somatotropin B) D vitamini, paratgormon

- C) E vitamini, kaltsitonin D) K vitamini, timozin
50. D (a) va C (b) vitaminlari qaysi mahsulotlarda bo‘lmaydi?
a) B1 b) A; 1) manna 2) sut va sut mahsulotlari 3) loviya 4) no‘xat 5) yong‘oq 6) jigar 7) tuxum sarig‘i 8) piyoz 9) baliq yog‘i 10) sariyog‘
A) a-1,3,4,5,6,8,10; b-1,2,3,4,5,6,7,8,9,10
B) a-1,3,4,5,6,8,9,10; b-2,3,4,5,6,7,9,10
C) a-1,3,4,5,6,7,8,10; b-1,2,3,4,5,6,7,9,10
D) a-1,3,4,5,6,8,10; b-2,3,4,5,6,7,8,10
51. D vitamin yetishmasligidan organizmda tuzlarning almashinuvi buziladi. Bu tuzlarning va kelib chiqadigan kasalning nomini belgilang?
A) Ca, Na; raxit; B) Ca, P, raxit;
C) Na, K, spazmafiliya; D) P,N, beri-beri;
52. Kalsiy va fosfor almashinuvini boshqaradigan vitamin va gormonlarni ko‘rsating.
A) D vitamini, paratgormon B) C vitamini, glyukokortikoid gormoni
C) C vitamini, tiroksin gormoni D) Bi vitamini, tiroksin gormoni
53. Oqsil va uglevodlar almashinuvini boshqaradigan vitamin va gormonlarni ko‘rsating.
A) D vitamini, paratgormon B) C vitamini, glyukokortikoid gormoni
C) C vitamini, tiroksin gormoni D) B\ vitamini, tiroksin gormoni
54. Qaysi hayvon va o‘simlik mahsulotlarida vitamin A (1) va vitamin B\ (2) uchraydi? a) baliq yog‘i; b) tuxum sarig‘i; c) jigar; d) loviya; e) yong‘oq
A) 1- a, b, c; 2- b, c, d, e B) 1- b, c, d; 2- a, b, e
C) 1- c, d, e; 2- a, b D) 1- a, c, d; 2- b, d, e
55. Gipovitaminoz B\ kasalligida (1) va avitaminoz B\ kasalligida (2) kuzatiladigan belgilarni aniqlang. a) qo‘l-oyoq muskullarining uvishib og‘rishi; b) holsizlik, tez charchash; c) beri-beri kasallik yuzaga keladi; d) nerv tolalari falajlanadi; e) terida sezuvchanlik oldin kuchayadi, keyin yo‘qoladi; f) oyog‘ini yaxshi ko‘tara olmaydi va qadamini kalta-kalta qilib qo‘yadi; j) aqliy faoliyati pasayadi; k) o‘zlashtirish, esda saqlash qobiliyati pasayadi
A) 1- a, b, j, k; 2- c, d, e, f B) 1- c, d, e, f; 2- a, b, j, k
C) 1- a, b, c, d; 2- e, f, j, k D) 1- b, d, f, j; 2- a, c, e, k
56. Ratsional ovqatlanishning qoidalarini ko‘rsating.
A) energetik, plastik B) energetik, sifat
C) miqdor, sifat, rejim D) miqdor, rejim, plastik
57. Ultrabinafsha nurlari ta‘sirida odam terisida qanday vitamin sintezlanadi?
A) vitamin D B) vitamin C C) vitamin A D) vitamin B
58. Qaysi vitamin oqsillar va uglevodlar almashinuvida muhim o‘rin tutadi?
A) riboflavin B) nikotin kislota
C) askorbinat kislota D) tiamin
59. Jigar, loviya, no‘xat tarkibida qaysi vitaminlar ko‘p uchraydi?
A) tiamin, riboflavin, nikotin kislota
B) riboflavin, askorbin kislota

- C) tiamin, askorbin kislota, riboflavin
 D) nikotin kislota, askorbin kislota
60. Asosan o'simlik mahsulotlarida uchraydigan vitaminni belgilang.
 A) A B) B C) D D) C
61. Ratsional ovqatlanish qoidasiga ko'ra kechki ovqat bir kecha-kunduzgi ovqat kaloriyasining necha foizini tashkil etishi kerak?
 A) 10-15 B) 15-20 C) 25-30 D) 35-40
62. Agar bir sutkada oziq moddalarning parchalanishi natijasida organizmda 3600 kkal energiya hosil bo'lsa, uning qanchasi tana haroratining doimiyligini ta'minlash uchun (1), qanchasi to'qima va organlar hayotiy jarayonlarining normal o'tishi va ish bajarishi uchun (2) sarflanadi?
 A) 1 - 1800 kkal; 2 - 1800 kkal B) 1 - 1200 kkal; 2 - 2400 kkal
 C) 1 - 2400 kkal; 2 - 1200 kkal D) 1 - 2000 kkal; 2 - 1600 kkal
63. Organizmda energiya qayerdan hosil bo'ladi?
 A) ovqatdan,
 B) oksidlanish- qaytarilish reaksiyalaridan,
 C) oqsillar, yog'lar, uglevodlarning kislorod bilan oksidlanib parchalanishi natijasida,
 D) assimilyatsiya- dissimilyatsiya tufayli,
64. Oziq moddalarning parchalanishidan hosil bo'lgan energiyaning qancha qismi to'qima va organlarning hayotiy jarayonlarning normal o'tishi va ish bajarishi uchun sarflanadi?
 A) 2/3, B) 2/4, C) 1/4, D) 1/3,
65. Odam organizmda kecha-kunduz davomida sarflanadigan energiya nechta qismdan iborat, ular qaysilar?
 A) 3 qismdan: ovqatlanish, nafas olish va oziqlanish uchun sarflanadigan energiya,
 B) 3 qismdan: aqliy, jismoniy, asosiy moddalar almashinuvi uchun sarflanadigan energiya,
 C) 3 qismdan: asosiy, moddalar almashinuvini ta'minlash uchun sarflanadigan energiya, ovqat hazm qilishda bir kecha-kunduzda bajaradigan ishiga sarflanadigan energiya,
 D) 4 qismdan, 1,2,3,4 guruhlarga,
66. Asosiy moddalar almashinuvi uchun sarflanadigan energiya qachon qanday ishlar uchun sarflanadi?
 A) kunduzgi hayotiy faoliyat modda energiya almashinuvi uchun,
 B) ertalab nahorda va kechasi odam qimirlamay yotgan paytda,
 C) ertalab nahorda, kechasi nafas olish, yuragi, buyraglari, jigari va boshqa hayotiy muhim a'zolari normal ishlab turishini ta'minlash uchun,
 D) ertalab , tushda, kechqurun modda almashinuvi, ovqat hazm qilish uchun,
 E) B va C to'g'ri
67. Tana massasi 45 kg bo'lgan bolada " Asosiy moddalar almashinuvini ta'minlash uchun" 24 soatga qancha energiya kerak
 A) 1080 kkal, B) 1280 kkal, C) 1680 kkal, D) 980 kkal,

68. Iste`mol qilingan ovqat tarkibida 100gr oqsil, 100 gr yog`, 100 gr uglevod bor deylik, bu moddalar organizmda parchalanishidan qancha energiya hosil bo`ladi ?
 A) 1750 kkal, B) 2800 kkal, C) 1300 kkal, D) 168 kkal,
69. Ovqatlanishning ilmiy asosda ratsional tashkil etishning nechta qoidasi bor, ular qaysilar?
 A) 2 ta: miqdor qoidasi, kunlik rejim,
 B) 3 ta: miqdor, sifat, gigiyena,
 C) 3 ta: miqdor, sifat, ovqat rejimi,
 D) 4 ta: miqdor, sifat, gigiyena, kunlik rejim,
70. Maktab o`quvchisining bir kunlik ovqat rejimi va maxsulotning o`rtacha taqsimlanishi foiz hisobida to`g`ri berilgan qatorni belgilang
 1- ertalabki nonushta, 2- tushki ovqat, 3- kechki ovqat, 4- qo`shimcha ovqat,
 a) 35- 40%, b) 15-20 %, c) 25-30 %, d) 10-15%
 A) 1c, 2b, 3d, 4a, B) 1b, 2c, 3a, 4d,
 C) 1c, 2a, 3b, 4d, D) 1d, 2a, 3b, 4c,
71. Ovqat odam organizmida qanday funksiyalarni bajaradi?
 A) plastik funksiya, energetik funksiya,
 B) zapas oziq, harakat,
 C) zapas oziq, harakat, faoliyat, energiya,
 D) sintez, tiriklikni ta`minlash,
72. 10 gr oqsil parchalanganda qancha energiya hosil bo`ladi?
 A) 9300 KKAL, B) 36 KKAL, C) 11 KKAL, D) 41 KKAL,
73. 10g uglevod parchalanganda qancha energiya hosil bo`ladi?
 A) 93KKAL, B) 36 KKAL, C) 11 KKAL, D) 41KKAL,
74. 10 gr yog` istemol qilganda qancha energiya hosil bo`ladi?
 A) 93 KKAL, B) 36 KKAL, C) 11 KKAL, D) 41 KKAL,
75. Ikkinchi nomi "tiamin" deb ataluvchi vitaminni aniqlang.
 A) D B) C C) B2 D) B1

VIII BOB. AYIRISH SISTEMASI

1. Ayirish organlariga ... kiradi
 A) buyrak, B) o`pka, C) A,B,D, D) teri,
2. Siydik ayirish organlariga ...
 A) buyrak, B) jigar, C) teri, buyrak,
 D) buyrak, siydik yo`li, siydik pufagi, siydik chiqorish kanali,
3. Buyrak qayerda joylashgan?
 A) qorin bo`shlig`ida,
 B) bel qismida,
 C) tos kamarining yuqorisida,
 D) qorin bo`shlig`ining bel qismida, birinchi va ikkinchi bel umurtqasining ikki yonida
4. Har bir buyrakning o`rtacha og`irligi qancha bo`ladi?

- A) 75 gr, B) 150 gr, C) 200 gr, D) 180 gr,
5. Buyrakning ichki oqimtir qavati nima deyiladi?
A) buyrak jomi, B) mag`iz, C) malpigi kanalchalari, D) nefron,
6. Buyrak to`qimasi nimadan tashkil topgan?
A) parenxema, B) buyrak hujayralari, buyrak jomi,
C) nefronlardan, D) muskuldan,
7. Har qaysi buyrakda qancha nefronlar bor ?
A) 500000, B) 1 mln, C) 1,5 mln, D) 7-8 yuz ming,
8. Buyrakning ish boshqaruvchi asosiy tuzilmasi nima hisoblanadi ?
A) buyrak po`sti, B) buyrak mag`zi,
C) genli halqasi, D) nefron
9. Buyrakka darvoza qismidan ... kiradi (a)va... chiqadi (b) .
1) buyrak arteriyasi; 2) buyrak venasi; 3) siydik yo`li; 4) buyrak aortasi; 5) tojsimon arteriya
A) a - 1, 4; b - 2, 3 B) a - 1; b - 2, 3 C) a - 5; b - 2, 3 D) a - 1, 5; b - 2, 3, 4
10. Birlamchi siydikning tarkibi qon plazmasining tarkibiga yaqin bo`ladi, unda faqat .. bo`lmaydi
A) glyukoza, B) glikogen , C) lipid, D) oqsil
11. Birlamchi siydikning tarkibi qonning qaysi qismi tarkibiga yaqin bo`ladi?
A) qon plazmasi, B) leykositlar, C) eritrositlar, D) trombositlar
12. Buyrakda siydik hosil bo`lishining filtratsiya davri nimaga bog`liq ?
A) kapillyarlardagi bosimning past, kapsuladagi bosimning yuqori bo`lishiga,
B) kapillyarlardagi bosimning yuqori, kapsuladagi bosimning past bo`lishiga,
C) kapillyar va kapsuladagi bosimning bir xil bo`lishiga,
D) buyrakdagi qadahsimon kapsulalar
13. Qaysi a`zoda arteriya 2 marta kapillyarlarga tarmoqlanadi ?
A) jigarda, B) o`pkada, C) buyrakda, D) oshqozonda
14. Buyrakdan ajraladigan moddalarni belgilang.
1) siydik kislota; 2) qoldiq azot; 3) ortiqcha tuzlar; 4) kreatinin; 5) oqsil; 6) lipaza;
7) oziq moddalar
A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 2, 3, 5 C) 1, 3, 5, 6 D) 3, 4, 6, 7
15. Sog'lom odamning ikkilamchi siydigida quyidagi birikmalarning qaysilari bo'lmasligi kerak?1) tuz; 2) oqsil; 3) glukoza; 4) kreatinin; 5) mochevina
A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 2, 3, 4, 5 C) 2,3 D) 1,4,5
16. Quyidagi birikmalarning qaysilari sog'lom odamning ikkilamchi siydigi taxkibida uchraydi ?
1) tuz; 2) oqsil; 3) glukoza; 4) kreatinin;5) mochevina
A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 2, 3, 4, 5 C) 2, 3 D) 1,4,5
17. Ikkilamchi siydik quyida berilganlarning qaysi birida bo`ladi ?
A) maligi tugunchasida B) Shumlyanskiy kapsulada
C) buyrak jomida D) kalavasimon kanalchalarida
18. Ikkilamchi siydik tarkibida qanday moddalar uchraydi ?
A) azot, mochevina, oqsil, tuz va suv

- B) qoldiq azot, mochevina, kreatin, tuz va suv
 C) azot, kreatin, tuz, mochevina, vitaminlar
 D) azot, mochevina, vitaminlar, tuz va suv
19. Bir sutkada katta yoshli odamda qancha siydik hosil bo`ladi ?
 A) 0,5, L B) 1,0, L C) 1,5, L D) 1-1,5 ,L
20. Reabsorbsiya jarayoni deb nimaga aytiladi ?
 A) birlamchi siydik tarkibidagi moddalarning vena tomirlariga qayta so`rilishi ,
 B) birlamchi siydikdagi moddalarning arteriya tomiriga qayta so`rilishi,
 C) birlamchi siydikdan ikkilamchi siydikning hosil bo`lishiga ,
 D) filtratsiya davriga
21. Katta odamda siydik yo`lining uzunligi qancha va u necha qavatdan iborat?
 A) 30 sm, 3 qavat, B) 15 sm, 2 qavat,
 C) 40 sm, 5 qavat, D) 20 sm, 2 qavat
22. Buyrakda siydik ajralishini kuchaytiruvchi (a) va kamaytiruvchi (b) nervlar hamda gormonlarni juftlab ko'rsating.
 1) simpatik nerv tolalari; 2) parasimpatik nerv tolalari; 3) vazopressin; 4) tiroksin
 A) a - 1, 3; b - 2, 4 B) a - 2, 4; b - 1, 3
 C) a - 1, 3, 4; b-2 D) a - 2; b - 1, 3, 4
23. Buyrakda siydik hosil bo`lishining birinchi davri qanday nomlanadi?
 A) filtratsiya B) reabsorbsiya C) plazmoliz D) transpiratsiya
24. Buyrakda siydik hosil bo`lishni ikkilamchi davri ... deyiladi.
 A) filtratsiya davri B) reabsorbsiya jarayoni
 C) nefronlarni shakllanish jarayoni D) birlamchi siydik hosil bo`lishdavri
25. Katta odamda siydik yo'lining uzunligi qancha (sm) va uning devori qanday qavatlardan tashkil topgan?
 A) 40; shilliq, muskul, biriktiruvchi B) 25; shilliq, muskul, biriktiruvchi
 C) 40; shilliq, muskul, epithelial D) 30; shilliq, muskul, seroz
26. Siydik pufagining hajmi katta odamda qancha bo`ladi, uning ichki, o`rta, tashqi qavatlari qanday nomlanadi?
 A) 500-700 ml shilliq, muskul, seroz, B) 250-300 ml shilliq, muskul, seroz,
 C) 150- 250 shilliq, muskul, seroz, D) 800-1200 ml seroz, shilliq, muskul,
27. Siydik pufagida nechta teshik bo`ladi ?
 A) 1 ta, B) 2 ta, C) 3 ta, D) 4 ta,
28. Siydik puffagi faoliyatini kuchaytiruvchi nervlarni ko'rsating ?
 A) simpatik nervlar B) adashgan nerv
 C) somatik nerv
 D) orqa miyaning dumg`aza qismidan chiquvchi nervlar
29. Siydik ajralishini qaysi gormon ko`paytiradi ?
 A) katexolamin B) antidiuretik C) esteregen D) tiroksin
30. Buyrak qon tomirini toraytirib, siydik ajralishini kuchaytiruvchi nervlarni ko'rsating ?
 A) adashgan nerv
 B) simpatik nerv

- C) orqa miyaning dumg‘aza segmentidan chiquvchi parasimpatik nervlar
D) o‘rta miyadan chiquvchi parasimpatik nervlar
31. Buyrakda siydik hosil bo‘lishining filtratsiya davri nimaga bog‘liq?
A) kapillarlardagi bosimning yuqori, kapsuladagi bosimning past bo‘lishiga
B) buyrakdagi qadahsimon kapsulalar soniga
C) kapillarlardagi bosimning past, kapsuladagi bosimning yuqori bo‘lishiga
D) kapillar va kapsuladagi bosimning bir xil bo‘lishiga
32. Buyrakning birlamchi siydik hosil bo‘ladigan qismi?
A) Shumlyanskiy kapsulasi B) piramidalar
C) nefronlar D) kalavasimon naychalar
33. Buyrakning po‘st qavatida voronka shaklidagi Shumlyanskiy kapsulasi joylashgan bo‘lib, u ... tashkil topgan.
A) bir qavatli yupqa pardadan B) ikki qavatli yupqa pardadan
C) uch qavatli yupqa pardadan D) egri-bugri kalavasimon kanalchadan
34. Nerv tolalari hamda ichki sekretiya bezlari siydik ayirish organlariga qanday ta‘sir etadi?
1) simpatik nervlar, 2) parasimpatik nervlar, 3) antidiuretik gormon (A.D.G), 4) qalqonsimon bezdan ishlab chiqiladigan tiroksin a) siydik ajralishini kuchaytiradi, b) siydik ajralishini kamaytiradi, buyrak qon tomirlarini toraytiradi, c) reobsortsiya jarayonini kuchaytiradi, siydik ajralishini kamaytiradi, d) reobsortsiya jarayonini pasaytirib, siydik ajralishini ko‘paytiradi
A) 1b, 2c, 3a, 4d, B) 1b, 2a, 3c, 4d, C) 1c, 2a, 3d, 4b, D) 1d, 2a, 3b, 4d,
35. Siydik ayirish organlarini yallig‘lanish kasalliklarini nimalar keltirib chiqaradi?
A) shamollash, B) angina, tish kasallikari,
C) shamollash ichketish, D) o‘pka kasali, ichketish,
36. Reabsorbsiya jarayonini pasaytiradigan ichki sekretiya bezi va gormonini belgilang.
A) gipofiz, vazopressin B) qalqonsimon bez, tiroksin
C) gipofiz, oksitotsin D) qalqonsimon bez, timozin
37. Nefrit qanday kasallik ?
A) sezuvchi nervning yallig‘lanishi
B) haraiatJantiruvni nervning yallig‘lanishi
C) buyrakning yallig‘lanishi
D) orqa miya hujayralarining yallig‘lanishi
38. Quyida berilganlarning qaysilari siydik ajralishini kamaytiradi ?
A) simpatik nerv tolalari, antidiuretik gormon,
B) parasimpatik nerv tolalari, tiroksin gormoni,
C) simpatik nerv tolalari, tiroksin gormoni,
D) parasimpatik nerv tolalari, antidiuretik gormon,
- 39 Buyrak-tosh kasalliklarining asosiy sababi nima ?
A) birlamchi siydik hosil bo‘lishining tezlashuvi,
B) organizmda tuz almashinuvining buzilishi, kam harakat
C) organizmda qon aylanishining jadallashuvi,

D) organizmda uglevod va oqsil almashinuvining buzilishi

IX BOB. TERI

1. Teri qoplami va uning hosilalari embrionning qaysi murtak qavatidan shakllanadi ?

A) ektoderma B) endoderma C) mezoderma D) blastoderma

2. Teri ustini qoplab turadigan to'qimani aniqlang.

A) kubsimon epiteliy B) yassi biriktiruvchi C) yassi epiteliy D) tuksimon epiteliy

3. Terining epidermis qavati necha kunda yangilanadi ?

A) 10-15 B) har kuni C) 3-5 D) 15-17

4. Teri necha qavatdan iborat?

A) 3, B) 1, C) 2, D) 4

5. Tananing qaysi qismlarida terining qalinligi 4 mm bo'ladi ?

1) qo'lning kaft, 2) yuz, 3) ko'krak, 4) oyoqning tovon, 5) qorin, 6) tananing orqa, 7) son

A) 2,3,4,5, B) 3,4,5,6, C) 4,5,6,7, D) 1,4,6,7

6. Epidermisning ustki qavati har necha kunda butunlay yangilanadi?

A) 4-5, B) 7-11, C) 1-2, D) 15-20

7. Teri qanday to'qima xiliga kiradi?

A) biriktiruvchi, B) epiteliy, C) hosil qiluvchi, D) muskul,

8. O'rta yochli odamda terining sathi o'rtacha qancha bo'ladi?

A) 2m², B) 1,5-2m², C) 3-3,5 m², D) 1-1,5m²

9. Teri nechta qavatdan iborat va bu qavatlar qanday nomlanadi?

A) 3 qavatdan : ektoderma, mezoderma, entoderma,

B) 2 ga, ichki va tashqi,

C) 3 qavat: epidermis, derma, gipoderma,

D) 3 qism:: teri usti, asl teri, teri osti yog` qavati

10. Derma qavati qanday to'qimadan tashkil topgan, unda nimalar bo'ladi ?

A) Epiteliy to'qimadan mayda qon tomirlari, limfa tomirlari, nerv tolalarining uchlari retseptorlar,

B) biriktiruvchi to'qimadan mayda qon tomirlari, limfa tomirlari, nerv tolalari uchlari, retseptorlar va soch va tuk ildizlari, ter va yog` bezlari, mayda muskul tolalari,

C) yosh nozik hujayralar, yog` oqsil uglevodlar, suv va azot qoldiqlari,

D) asl teri muskul to'qimasi, teri osti yog` kletchatkasi,

11. Gipoderma bu ..?

A) kasallik, B) asl teri, C) terining eng ustki qavati, D) teri osti yog` qavati,

12. Derma qanday to'qimadan hosil bo'lgan?

A) biriktiruvchi, B) silliq muskul, C) bezli to'qima, D) ko'ndalang-targ`il

13. Terining qaysi qismida qon va limfa tomirlari joylashgan?

A) epidermis, B) derma,

- C) teri osti yog` kletchatkasi, D) derma, teri osti yog` kletchatkalari
14. Terining funksiyalarini to`g`ri belgilang.
 A) sezish, nafas olish B) himoya
 C) ayirish va tana haroratini doimiy saqlash D) barcha javoblar to`g`ri.
15. Terining qaysi qismida qon va limfa tomirlari bo`ladi?
 A) epidermisda B) dermada
 C) teri osti yog` klechatkasida D) epidermis va dermada
16. Ter bezlari ayirishi natijasida bir kecha – kunduzda ajraladigan ter miqdori, tarkibidagi osh tuzi va azot qoldigini miqdorini aniqlang?
 A) 500ml, 2g, 1g; B) 100ml,1g,1g; C) 400ml, 3g,2g; D)800ml, 5g, 2g.
17. Ter va yog` bezlari terining qaysi qavatida joylashgan?
 A) gipoderma B) derma C) derma va gipoderma D) epidermis va derma
18. Mayda muskul tolalari tananing qaysi qismida uchraydi?
 A) barmoqlarda B) qovurg'alar orasida
 C) kaftlarda D) terining derma qavatida
19. Sog`lom onaning sut bezlaridan bir sutkada o`rtacha qancha sut ajraladi?
 A) 500 gr, B) 300-310 gr, C) 600-700 gr, D) 1-1,5l, gr
20. Odam terisida qanday reseptorlar bo`ladi?
 A) sovuqni sezuvchi, B) og`riqni sezuvchi,
 C) issiqni sezuvchi, D) barcha javoblar to`g`ri
21. Odam terisida qancha ter bezlari bor?
 A) 1mln dan ortiq, B) 2mln dan ortiq, C) 12 mln, D) 15mln
22. Ona suti tarkibida ...?
 1) oqsil, 2) yog`, 3) uglevod, 4) har xil mineral tuzlar, 5) suv va vitamin fermentlari) 87%, b) 1,5%, c) 4,5 %, d) 6,5%, e) 0,3%, i) 0,2%
 A) 1b, 2c, 3d, 4e, 5a, B) 1a, 2c, 3d, 4a,
 C) 1c, 2a, 3d, 4a, 5i, D) 1d, 2a, 3c, 4b, 5e,
23. Odam embrioni tuxum yo'lida qancha vaqt bo'ladi?
 A) ikki hafta B) bir hafta C) 18-20 kun D) 3kun
24. Jismoniy mashq bajarish vaqtida 2000 ml ter ajralgan bo'lsa, uning tarkibidagi azot qoldig'i (a) va osh tuzi (b) ning miqdorini aniqlang.
 A) a-1g; b-2g B) a-4g; b-8g C) a-8g; b-4g D) a-3g; b-6g
25. Qon plazmasi (a) va ona suti (b) tarkibidagi oqsillar miqdorini aniqlang.
 A) a - 7-8%; b - 4,5% B) a - 7-8%; b - 1,5%
 C) a - 7-8%; b - 6,5% D) a - 7-8%; b - 0,3%
26. Qon plazmasi (a) va ona suti (b) tarkibidagi yog'lar miqdorini aniqlang.
 A) a - 0,9%; b - 1,5% B) a - 0,8%; b - 4,5%
 C) a - 0,8%; b - 6,5% D) a - 0,9%; b - 4,5%
27. Ona suti (a) va qon plazmasi (b) tarkibidagi uglevodlar miqdorini aniqlang.
 A) a - 0,1%; b - 1,5% B) a - 1,5%; b - 0,1%
 C) a - 4,5%; b - 0,1% D) a - 6,5%; b - 0,1%
28. Ona suti (a) va qon plazmasi (b) tarkibidagi mineral tuzlar miqdorini aniqlang.
 A) a - 0,9%; b - 0,3% B) a - 0,3%; b - 0,9%

- C) a - 0,8%; b - 0,9% D) a - 0,9%; b - 0,8%
29. Teri organizmda necha xil funksiyani bajaradi?
A) 3 xil, B) 4 xil, C) 5 xil, D) 6 xil,
30. Retseplarning tashqi muhit ta'sirida moslashishi ... deyiladi
A) moslanuvchanlik, B) divergensiya,
C) adaptarlik, D) adaptatsiya,
31. Bir kecha-kunduzda katta odamda o`rtacha qancha ter ajraladi?
A) 300 ml, B) 400 ml, C) 11 ml, D) 500 ml,
32. Odam terisi orqali organizm uchun zarur bo`lgan kislorodni necha % oladi ?
A) 1%, B) 2%, C) 3%, D) 4%,
33. Bolalar sovuni tarkibidagi qaysi moddalar teridagi mikroblarni yo'qotadi (a) va terini yumshatadi (b)?
A) a - sulfat kislota; b – letsitin B) a - xlorid kislota; b - vazelin
C) a - bor kislota; b – Jyutein D) a - bor kislota; b - lanolin
34. Organizmni chiniqtirishda qanday gigiyena qoidalariga amal qilinadi?
1) Chiniqtirishni asta sekinlik bilan boshlash, 2) chiniqtirishning izchillik prinsipi, 3) vaqtida ovqatlanish, 4) havoda chiniqtirish, 5) individual xususiyatlarni hisobga olish, 6) chiniqtirishda o`z-o`zini nazorat qilib turish
A) 1,2,3,5,6, B) 1,2,5,6, C) 1,2,4,6, D) 1,3,5,
35. Chiniqtirish turlari to`g`ri berilgan qatorni toping ?
1) havoda chiniqtirish, 2) akrobatik o`yinlar, 3) suvda chiniqtirish, 4) yugurish, 5) quyoshda chiniqtirish
A) 1,2,4,5, B) 1,3,5, C) 1,2,4, D) 1,2,5,
36. Teri timdalangan, qirilgan vaqtda qanday birinchi yordam ko`rsatiladi?
A) sovuq suv bilan yuviladi, yod eritmasi, yashil dori surtish
B) bint b-n bog`lash
C) kaliy permanganatning (1:1000) eritmasi bilan yuviladi,
D) solyarkada tikiladi (yuviladi),
37. Issiq va oftob urganda qanday birinchi tibbiy yordam ko`rsatiladi?
A) bemor salqin joyga o`tkaziladi, ko`proq sovuq choy, mineral suv ichiladi,
B) sovuq suvda ho`llangan sochiq yoki doka bilan bilak, qo`ltiq, son, tizza osti sohalariga qo`yiladi,
C) bemorning umumiy holiga qarab, ustidan sovuqroq suv quyish mumkin,
D) yuqoridagilarni barchasini qo`llash mumkin
38. Sovuq urganda qanday birinchi tibbiy yordam ko`rsatiladi?
A) issiq xonaga o`tkaziladi,
B) issiq suvda cho`miltiriladi,
C) spirt ichiladi,
D) terining shu joyi iyumshoq jun ro`mol yoki bosshqa issiq yumshoq mato bilan isitiladi
39. Odam ter bezlari orqali 3 g osh tuzi ajratgan bo`lsa, ...
A) 1500 ml ter ajratgan bo`ladi B) 6 g azot qoldigi ajratgan
C) 750 ml ter ajratgan bo`ladi D) 2 g azot qoldigi ajratgan

X BOB. ICHKI SEKRETSIYA BEZLARI

1. Tashqi va ichki sekreksiya bezlariga mos keladiganlarni belgilang.

1) tashqi sekreksiya, 2) ichki sekreksiya, a) so`lak bezi, b) epifiz, v) yog`I g) ter, d) qalqonsimon, e) oshqozon osti, j) buyrak usti

A) 1-a, v,g, 2- b, d, j, B) 1-a,b,e,, 2- a,d,j,

C) 1-b,v,g, 2-d,e,j, D) 1-j,e,d, 2- g,v,b,

2. Aralash bezlarga misollar keltiring

A) qalqonsimon, jinsiy bez, B) buyrak usti, gipofiz,

C) oshqozon osti, teri bezi, D) oshqozon osti, jinsiy bezlar

3. Odam tanasida necha xil bez bor?

A) 2 xil, B) 3 xil, C) 4 xil, D) 5 xil,

4. Tashqi sekreksiya bezlariga qaysi bezlar kiradi?

A) ter, yog`, sut, epifiz, so`lak(quloq oldi, til osti, jag` osti, me`da va ichak shilliq qavati bezlari),

B) gipofiz, epifiz , qalqon oldi, jigar, qalqon oldi ayrisimon bez, buyrak usti bezi,

C) buyrakning po`st qismi, moyak, qalqonsimon,

D) ter, yog`, sut, so`lak(quloq oldi, til osti, jag` osti hamda me`da va ichak shilliq qavatidagi bezlari)

5. Ichki sekreksiya bezlariga qaysi bezlar kiradi?

A) ter, yog`, sut, epifiz, so`lak(quloq oldi, til osti, jag` osti, me`da va ichak shilliq qavati bezlari),

B) gipofiz, epifiz, qalqon oldi, qalqon simon ayrisimon bez, buyrak usti bezi,

C) buyrakning po`st qismi, moyak, qalqonsimon bez,

D) ayrisimon bez, me`da, buyrak usti,

6. Aralash bezlarga qaysi bezlar kiradi?

A) oshqozon osti va jinsiy bezlar,

B) gipofiz, epifiz, qalqon oldi, jigar, qalqon oldi ayrisimon bez, buyrak usti ,

C) buyrakning po`st qismi, moyak, qalqonsimon,

D) ayrisimon bez, me`da, buyrak usti,

7. Ichki sekreksiya bezlarining hammasi birgalikda qaysi sistemani tashkil etadi?

A) ichki sekreksiya sistemasi,

B) endokrin sistemasi,

C) ovqat hazm qiluvchi bezlar sistemasi,

D) o`shish, rivojlanish, ko`payishni ta`minlovchi sistema,

8. Gipofiz bezi tananing qayerida joylashgan, massasi qancha, nechta bo`lakdan iborat?

A) bosh miyada, 0,5-0,6 gr, 3 bo`lakdan,

B) buyrak ostida, 0,5-0,6 gr, 3 bo`lakdan,

C) quloq ortida 0,6- 0,8 gr, 4 bo`lakdan,

D) bosh miyaning ostki sohasi, kalla suyagining turk egarchasi deb ataladigan qismida, 0,5-0,6 gr, 3 bo`lakdan,

9. Nanizm va gigantizm qaysi gormonning faoliyati natijasida kelib chiqadi?

- A) ganadotrop, B) somatotrop,
 C) laktotrop, D) adrenokortikotrop,
10. Gipofiz bezining ishi qaysi nerv sistemasi tomonidan boshqariladi?
 A) somatik B) vegetativ C) periferik D) simpatik
11. Ichki sekretiya bezlari ishlab chiqargan mahsulotlar qanday ataladi?
 A) enzimlar B) fermentlar C) antitanaiar D) gormonlar
12. Gipofizning oldingi (1) va oraliq (2) bo'lagidan ajraladigan gormonlarni belgilang.
 a) somatotrop; b) melatonin; c) intermidin; d) tiroksin
 A) 1-a, 2-b B) 1-b, 2-a C) 1-c, 2-b D) 1-a, 2-c
13. Gipofizning oraliq bo'lagidan ajraluvchi gormonni ko'rsating.
 A) somatotrop B) vazopressin C) intermidin D) oksitotsin
14. Qaysi bezning ko'p gormon ishlab chiqarishi gigantizmga olib keladi?
 A) buyrak usti B) oshqozon osti C) gipofiz D) qalqonsimon
15. Kalla suyagining turk egarchasida qaysi bez joylashgan?
 A) epifiz B) qalqonsimon C) gipofiz D) ayrisimon
16. Vazopressin gormoniga qarama-qarshi (a) va o'xshash (b) gormonlarni ko'rsating?
 1) intermidin 2) tiroksin 3) adrenalini 4) androgen
 A) a-1; b-2 B) a-2; b-3 C) a-3; b-2 D) a-3; b-4
17. Vazopressin gormoni qaysi jarayonni boshqaradi?
 A) bolalarda o'sish va rivojlanishni
 B) terida pigment hosil bo'lishini ta'minlaydi
 C) sut bezlari faoliyatini
 D) reabsorbsiya jarayonini
18. Vazopressin gormoniga xos bo'lmagan javobni ko'rsating.
 A) qon tomirlarini toraytiradi
 B) gipofiz bezining oraliq bo'lagidan ajraladi
 C) qon bosimini oshiradi
 D) ish faoliyati jihatidan simpatik nervga o'xshaydi
19. Vazopressin va adrenalini gormonlari ...
 A) qon tomirlarini toraytirib, qon ivishini tezlashtiradi
 B) qon tomirlarini toraytiradi va arterial bosimini oshiradi
 C) hujanraga kirgan mikroblarni zaharlaydi va neytrallaydi
 D) nerv hujayralarining ish faoliyatini taminlaydi
20. Qaysi gormon intermidin gormoni singari odam organizimida pigment almashinuvini boshqarishda ishtirok etadi?
 A) gonadotrop B) tireotrop C) gomotrop D) melatonin
21. Odamning immunitet xususiyatini oshiruvchi gormonni belgilang.
 A) tiroksin B) paratgormon C) katexolomin D) timozin
22. Qaysi gormonlar organizmda bir xil jarayonlarni boshqarishda ishtirok etadi?
 A) ganadotrop, laktotrop B) melatonin, intermidin
 C) intermidin, oksitotsin D) melatonin, paratireoidin

23. Qaysi kasallikda ko'p terlash, asabiylashish, uyqusizlik, yurak urishining kuchayishi, odamning ozishi kuzatiladi?
- A) tireotoksikoz B) endemik bo`qoq
C) gipoterioz D) tetaniya
24. Tiroksin gormoni buyrak faoliyatiga qanday ta`sir ko`rsatadi?
- A) buyrak qon tomirlarini kengaytirib, siydik ajralishini pasaytiradi,
B) buyrak qon tomirlarini toraytirib, siydik ajralishini kuchaytiradi,
C) reabsorbiya jarayonini pasaytirib, siydik ajralishini kuchaytiradi,
D) reabsorbiya jarayonini kuchaytirib, siydik ajralishini pasaytiradi
25. Qalqonsimon bez tananing qayerida joylashgan, katta yoshdagi odamda bu bezning massasi qancha bo`ladi?
- A) uzunchoq miyada 25-30 gr,
B) oraliq miyada 0,2- 0,5 gr,
C) to`sh suyagi ostida 0,5-0,7 gr,
D) bo`yinning oldingi qismida, hiqildoqni ustida 25-30 gr,
26. Qalqonsimon bezning funksiyasi qaysi qatorda berilgan?
- 1) moddalar almashinuvida ishtirok etadi, 2) yurak ishini gumoral boshqarilishida ishtirok etadi, 3) ovqat hazm qilish, nafas olishni boshqarishda ishtirok etadi, 4) bolalarda o`shish va rivojlanishda, 5) nerv sistemasining funksiyasining normal takomillashuvida
- A) 1,2,3,5, B) 1,2,4,5, C) 1,3,5, D) 2,3,4,
27. Gipotireoz kasalligi qaysi bezning funksiyasi pasayishidan kelib chiqadi, uning belgilari nimalardan iborat?
- A) qalqonsimon tanasi shishadi aqliy faoliyati zaiflashadida saqlash o`zlashtirish qobiliyati pasayadi
B) epifiz, alahsiraydi, xotirasi yo`qoladi,
C) issiq vaqtda ham sovqotadi, doimo bo`shashganlik seziladi,
D) tanasi shishadi, aqliy faoliyati zaiflashadi, o`zlashtirish qobiliyati pasayadi,
28. Endemik bo`qoq kasalligi bilan ko`proq kimlar kasallanadi?
- A) doimo quduq artezian suvidan foydalanuvchilar,
B) ariq va hovuz suvini iste`mol qiluvchilar,
C) yodlanmagan tuz iste`mol qiluvchilar,
D) doimiy ravishda buloq suvidan foydalanuvchilar,
29. Bazedov kasalligining kelib chiqish sabablari nimada?
- A) gipofiz funksiyasining o`zgarishi,
B) epifiz funksiyasining o`zgarishi,
C) ayrisimon bez funksiyasining pasayishi,
D) qalqonsimon bez funksiyasining oshishi tiroksin gormonining ko`p sintezlanishi
30. Ko`zlarning chaqchayib qolishi, ko`p terlash, asabiylashish, uyqusizlik, ozish, yurak o`ynashi kabi holatlarning kelib chiqishi qaysi kasallikning belgilari hisoblanadi?
- A) meksidema, B) bazedov, C) raxit, D) gipoterioz,
31. Qalqon oldi bezining paratgormon ishlab chiqarilishi juda kamayib ketsa

bemorda qaysi belgilar kuzatiladi?

1) nerv-muskul sistemaning qo'zg'aluvchanligi pasayadi; 2) soch to'kiladi; 3) tana muskullari bo'shashadi; 4) suyaklar mo'rt bo'lib qoladi; 5) nerv-muskul sistemaning qo'zg'aluvchanligi ortadi; 6) odam umumiy holsizlanadi va tez charchaydi; 7) odamda tetaniya holati yuzaga keladi

A) 3, 5, 7 B) 1, 2, 3, 6 C) 2, 4, 5, 7 D) 1, 3, 6

32. Odam tanasining umumiy qaltirashi, ya'ni tutqanoq holati qaysi bezning vazifasi buzilishi natijasida yuzaga keladi?

A) ayrisimon; B) qalqonsimon; C) qalqonoldi; D) gipofiz;

33. Qalqon orqa bezlarining funksiyasi ortib, paratgormon ishlab chiqarilishi ko'paysa,....

A) nerv-muskul tizimining qo'zg'aluvchanligi ortib, odamning qovoqlari, lablari pիրpirab uchadi, qo'llari qaltiraydi

B) soch to'kiladi, suyaklar yumshab, egiluvchan, mo'rt bo'lib qoladi

C) nerv-muskul sistemasining qo'zg'aluvchanligi pasayib, tana muskullari bo'shashib qoladi, odam umumiy holsizlanadi, tez charchaydi

D) odamning burni, labi,

34. Paratgormon ishlab chiqarilishi ko'paysa bemorda qaysi belgilar kuzatiladi?

1) nerv-muskul sistemaning qo'zg'aluvchanligi pasayadi; 2) soch to'kiladi; 3) tana muskullari bo'shashadi; 4) suyaklar mo'rt bo'lib qoladi; 5) nerv-muskul sistemaning qo'zg'aluvchanligi ortadi; 6) odam umumiy holsizlanadi va tez charchaydi; 7) odamda, tetaniya holati yuzaga keladi

A) 2, 4, 5, 7 B) 1, 3, 6 C) 1, 2, 3, 6 D) 3, 5, 7

35. Qaysi gormonning yetishmasligi odam tanasining umumiy qaltirashiga(tutqanoq) olib boradi?

A) timozin; B) tiroksin; C) paratgormon; D) insulin;

36. Qaysi gormon juda kamayib ketsa soch to'kiladi?

A) tiroksin B) vazopressin C) paratgormon D) melatonin

37. Nerv-muskul tizimining qo'zg'aluvchanligi ortib, odamning qovoqlari, lablari pիրpirab uchadi, qo'llari qaltiraydi, agar...?

A) paratgormon ko'p ishlab chiqarilsa; B) timozin yetishmasa;

C) paratgormon kam ishlab chiqarilsa; D) tiroksin ortib ketsa.

38. Paratgormon ishlab chiqarilishi juda kamayib ketsa bemorda qaysi belgilar kuzatiladi?

1) nerv-muskul sistemaning qo'zg'aluvchanligi pasayadi; 2) soch to'kiladi; 3) tana muskullari bo'shashadi; 4) suyaklar mo'rt bo'lib qoladi; 5) nerv-muskul sistemaning qo'zg'aluvchanligi ortadi; 6) odam umumiy holsizlanadi va tez charchaydi;

7) odamda tetaniya holati yuzaga keladi

A) 2, 4, 5, 7 B) 1, 3, 6 C) 1, 2, 3, 6 D) 3, 5, 7

39. Tetaniya nima?

A) odam tanasining umumiy qaltirashi

B) muskul tolalari qisqarib, bo'shasha olmay qolishi

- C) harafcatiantiruvchi nerv tolasining yalHg'lanishi
 D) bosh miya to'qimasining yallig'lanishi
40. Quyidagi qaysi gormonlar organizmning o'sishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi?
 A) vazopressin, timozin B) somatotrop, tiroksin
 C) glyukokortikoid, tiroksin D) insulin, timozin
41. Necha yoshdagi odamda ayrisimon bezning eng ko'p massasi 30-40 g ni tashkil etadi?
 A) 25 B) 70 C) chaqaloqlarda D) 14-15
- 42..Odamning immunitet xususiyatini oshiruvchi gormonni belgilang.
 A) tiroksin B) paratgormon C) Icatexoiamin D) timozin
43. Qaysi bez 14-15 yoshgacha kattalashib, so`ngra asta-sekin kichrayadi?
 A) gipofiz, B) ayrisimon bez,
 C) qalqonoldi, D) buyrak usti,
- 44.Ayrisimon bez tanada qanday vazifani bajaradi?
 A) qalqon oldi bez faoliyatini cheklab turadi,
 B) pigment hosil bo`lishini boshqaradi,
 C) jinsiy bezlar faoliyatiga ta`sir etadi, organizmning immunitet xususiyatini oshiradi,
 D) ovqat hazm qilishda ishtirok etadi,
45. Nima uchun o'smirlik davridan keyin organizmning immuniteti susayadi?
 A) tiroksin gormoni limfotsitlar hosil bo'lishini susaytiradi
 B) melatonin gormonining aktivligi kuchayadi
 C) ayrisimon bezdan ajraladigan timozin miqdori kamayadi
 D) adrenalini miqdori kamayadi
- 46 Melatonin (1), intermidin (2), timozin (3) gormonlari qaysi bezlar gormoni hisoblanadi?
 a) epifiz; b) qalqonsimon; c) buyrakusti;d) ayrisimon; e) gipofiz
 A) 1a,2e,3d B) 1e, 2a, 3d C) 1a, 2c, 3d D) 1e,2d,3a
47. Qaysi gormon reabsorbtsiya jarayonini pasaytirib, siydik ajralishini ko'paytiradi?
 A) tiroksin; B) vazopresin; C) timozin; D) adrenalini
48. Qaysi gormon ta'sirida qonda qand, jigarda glikogen miqdori ortadi?
 A) glyukagon; B) glyukokortikoid; C) androgen; D) katexolamin;
49. Odam organizmida ishlab chiqariladigan paratgormon (1), glukokortikoid (2), somatotrop (3), melatonin (4) gormonlari organizmda qaysi funksiyalarni boshqaradi?
 a) kalsiy-fosfor almashinuvini; b) oqsil va uglevodlar almashinuvini; c) pigment almashinuvini; d) oqsillar sintezlanishini
 A) 1-a, 2-c, 3-b, 4-d B) 1-a, 2-b, 3-d, 4-c
 C) 1-d, 2-b, 3-a, 4-c D) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d
50. Buyrak usti bezining gormonlari ...
 A) insulin, katexolamin B) testesteron, adrenalini

- C) androgen, esterogen D) esteron, estradiol
51. Esterogen gormoni qayerda ishlab chiqariladi?
1) buyrakusti bezining po'stloq qavatida; 2) tuxumdonda; 3) urug'donda
A) 1 B) 1,2 C) 1,3 D) 2, 3
52. Buyrak usti bezi ichki qavati nima deb ataladi?
A) po'stloq, B) miya C) endoderma, D) gipoderma,
53. Buyrak usti bezining miya qismidan qanday gormonlar ishlab chiqiladi?
A) paratgormon, timozin,
B) intermidin, lyutinlovchi,
C) mineralokortikoid , glyukokortikoid, androgen,
D) noradrenalin, katexolamin, adrenalin
54. Buyrak usti bezining gormonlari -...
A) insulin, katexolamin B) testesteron, adrenalin
C) androgen, esterogen D) esteron, estradoil
55. Buyrak usti bezlarining ustki po'stloq qavatidan hosil bo'ladigan gormonni belgilang.
A) adrenalini B) esterogen C) melotonin D) katexolamin
56. Quyida nomlari ko'rsatilgan gormonlar va ularning funksiyalari to'g'ri bo'lgan javoblarni belgilang?
1) mineralokortikoid, 2) glyukokortikoid, 3) androgen, esterogen, 4) adrenalini,
5) katexolamin a) arterial qon bosimini oshiradi, yurak qisqarishini tezlatadi, b) erkak va ayollarda jinsiy bezlar funksiyasini kuchaytiradi, c) organizmda oqsil, yog'lar, ugleoidlar almashinishini boshqarishda ishtirok etadi, d) organizmda mineral tuzlar almashinuvini boshqarishda ishtirok etadi
A) 1a, 2b, 3c, 4a, 5a, B) 1d, 2c, 3b, 4a, 5a,
C) 1b, 2c, 3a, 4a, 5d, D) 1d, 2a, 3a, 4c, 5d
57. Me`da osti bezining vazni qancha bo'ladi?
A) 70-80 gr, B) 0,7-0,9 gr, C) 1-1,5 gr, D) 5-7 gr,
58. Qondagi ortiqcha qand moddasi nimaga aylanadi?
A) kraxmalga, B) yog`ga, C) oqsilga, D) glyukogenga,
- 59.. Odam tanasidagi qaysi bez uch qismdan bosh, tana va dumdan iborat bo'ladi?
A) jigar B) oshqozon osti C) so'lak bezi D) quloq oldi so'lak bezi
60. Qaysi gormon o'smirlarda balog'atga yetish belgilari yuzaga kelishiga ta'sir ko'rsatadi?
A) katexolamin, testosteron B) itermedin, progesteron
C) paratgormon, esterogen D) testosteron, progesteron
61. Qonda qand, jigarda glikogen miqdoriga ta'sir qiluvchi gormon(lar)ni ko'rsating?
1) vazopressin 2) adrenalini 3) glukokortikoid 4) insulin
A) 3 B) 1,4 C) 2,3 D) 3,4
62. Qonda qandning miqdori... mg % dan oshaversa siydik bilan tashqariga chiqarila boshlaydi.
A) 60- 8 B) 80-120 C) 120-130 D)140-150

63. Urug'don qanday gormon va hujayralar ishlab chiqaradi?
 A) testosteron, tuxiun B) progesteron, urug`
 C) testosteron, urug` D) estradiol, tuxum
64. Tuxuindon qanday gormon va hujayralar ishlab chiqaradi?
 A) testosteron, tuxum B) progesteron, urug`
 C) testosteron, urug` D) estrogen, tuxum
65. Umurtqa pog'onasining lordoz (a) va kifoz (b) qismlari ro'parasida joylashgan ichki sekretiya bezlarini ko'rsating?
 1) epifiz 2) gipofiz 3) qalqonsimon 4) qaloqon orqa 5) ayrisimon 6) buyrak usti
 A) a-1,3,4; b-1,5 B) a-2,4,6; b-1,3 C) a-3,4 b-5,6 D) a-3,4,6; b-5
66. Neyrogormonlarga xos bo'lgan xususiyatni belgilang?
 1) aralash sekretiya bezlaridan ajraladi 2) ichki sekretiya bezlaridan ajraladi 3) gipotalamusdan ajraladi 4) organizmda kalsiy va fosfor almashinuvini boshqaradi 5) gipofiz faoliyatini boshqaradi
 A) 1,4 B) 2,5 C) 3,4 D) 3,5
67. Neyrogormonlarga xos bo'lmagan xususiyatni belgilang?
 A) o'rta miyadagi gipotalamusdan ajraladi
 B) gipofiz faoliyatini boshqaradi
 C) oraliq miyadagi gipotalamusdan ajraladi
 D) Markaziy nerv sistemasi tomonidan endokrin sistemani boshqarishda qatnashadi
68. Bo'yi o'sishdan to'xtagan katta yoshdagi ... odamlarda gormonning ko'p ishlab chiqarilishi natijasida qanday kasallik kelib chiqadi ?
 A) qandsiz diabet B) Addison kasalligi C) nanizm D) akromegaliya
69. Bo'yinning oldingi qismida joylashgan bo'lib, hiqildoqni oldingi va yon tomonlardan yopib turadigan bezning nomi?
 Uning vazni chaqaloqda(1); 5-10 yoshli bolalarda(2), kattalarda(3)
 A) qalqonsimon bez, 1-1g, 2-10g, 3-25-30g;
 B) qalqonsimon bez; 1-25g, 2-10, 3-1g;
 C) ayrisimon bez; 1- 12g, 2- 30-40g, 3- 6g;
 D) ayrisimon bez; 1-25g, 2-15g, 3-6g;
70. Kalla suyagining turk egarchasida qaysi bez joylashgan?
 A) epifiz B) qalqonsimon C) gipofiz D) ayrisimon
71. Epifiz bezining vazni?
 A) 0,5 -0,6g, B) 0,2g, C) 1,0g, D) 12g;
72. 8 yoshli boladagi tireotoksikoz kasalligining ko'rinishlarini belgilang.
 1) ko'p terlash; 2) bo'y o'sishi sekinlashishi; 3) ko'zning chaqchayishi; 4) asabiylashish; 5) soch to'kilishi; 6) uyqusizlik; 7) ozish; 8) burni, labi, iyagi, qo'l panjalarining hajmi kattalashishi; 9) qalqonsimon bez kattalashishi
 A) 1,2,3,4,5,6,7 B) 1, 3,4,6,7,9 C) 3,4,5,6,7,8 D) 1,3,4,5,6,7,8,9
- 73.. Ko'p terlash, asabiylashish, uyqusizlik, ozish, yurak o'ynash qaysi kasallikda namoyon bo'ladi?
 A) gipoterioz; B) akromegaliya; C) tireotoksikoz; D) Addison;

XI BOB. NERV SISTEMASI

1. Markaziy nerv sistemasiga ... kiradi ?

1) orqa miyadan chiqadigan 31 juft sezuvchi, harakatlantiruvchi nerv tolalari, 2) bosh miyadan chiqadigan 12 juft nervlar, 3) orqa va bosh miya, 4) umurtqa pog'onasi atrofida va ichki organlarda joylashgan nerv tugunlari, 5) orqa miya, bosh miyaning pastki qismlari, ya'ni uzunchoq miya, 6) Voroliy ko'prigi, 7) o'rta oraliq miya miyacha, 8) bosh miya yarim sharlari va ularning po'stloq qismi

A) 1,2,4,5,6,7,8, B) 1,2,4, C) 1,5,6, D) 3,5,6,7,8

2. Odam tanasidagi sezgi organlari, skelet muskullari ishini nerv sistemasining qaysi qismi boshqaradi ?

A) somatic nerv sistemasi, B) pereferik nerv sistemasi,
C) simpatik nervlar, D) vegetative nerv sistemasi,

3. Nafas olish, qon aylanish, ovqat hazm qilish, ayirish, ichki sekretsia bezlari faoliyatini nerv sistemasini qaysi qismi boshqaradi ?

A) somatic nerv sistemasi, B) pereferik nerv sistemasi,
C) simpatik nervlar, D) vegetative nerv sistemasi,

4. Pereferik nerv sistemasiga ... kiradi ?

1) Orqa miyadan chiqadigan 31 juft sezuvchi, harakatlantiruvchi nerv tolalari, 2) bosh miyadan chiqadigan 12 juft nervlar, 3) orqa va bosh miya, 4) umurtqa pog'onasi atrofida va ichki organlarda joylashgan nerv tugunlari, 5) orqa miya, bosh miyaning pastki qismlari, ya'ni uzunchoq miya, 6) Voroliy ko'prigi, 7) o'rta, oraliq miya, miyacha, 8) bosh miya yarim sharlari va ularning po'stloq qismi

A) 1,2,4,5,6,7,8, B) 1,2,4, C) 1,5,6, D) 6,7,8,

5. Vegetativ nerv sistemasi qaysi organlar ishini boshqaradi?

A) nafas o'Jisn, qon aylanish, skelet muskullari
B) endokrin bezlar, sezgi organlari
C) ovqat hazm qilish, ayirish, nafas olish, qon aylanish, endokrin bezlar
D) ichki organlar, skelet muskullari

6. Orqa miya tuzilishini ifoda etuvchi javoblar qaysi qatorda berilgan ?

1) orqa miya umurtqa kanali ichida joylashgan, 2) uzunligi 40-45 mm, vazni 30-40 mg, 3) orqa miyada 13 mln dan ortiq nerv hujayra bor, 4) orqa miyaning uzunligi 40-45 sm, vazni 30-40 gr, 5) nerv hujayralarining tanasi 0.1 mm dan oshmaydi, 6) ba'zi nerv hujayralari tanasining uzunligi 1,5 m gacha boradi, 7) orqa miya 31-33 ta sigmentdan iborat, 8) orqa miya 3 qavat parda bilan o'raglan, tashqi qavat qattiq, o'rta qavati o'rgimchak to'rsimon, ichki qavati yumshoq

A) 1,2,3,5,6,7, B) 2,3,6,7,8 ,C) 3,6,7,8, D) 1,3,4,7,8,

7. Orqa miya qayerdan boshlanib, qayerda tugaydi ?

A) bosh miyaning o'rta bo'lagidan uzunchoq miyachada,
B) bosh miyadan Vorolev ko'prigigacha,
C) 2-3 bo'yin umurtqasidan boshlanib, dumg'aza umurtqasining boshlang'ich qismigacha,

D) yuqori qismi birinchi bo`yin umurtqasiga to`g`ri keladi, uzunchoq miyadan boshlanib pastki qismi 1,2 bel umurtqasigacha davom etadi,

8. Orqa miya segmentlarining joylashish tartibi va soni to`g`ri berilgan qatorni aniqlang

1) bo`yin qismidagi segmentlar soni, 2) bel qismidagi sigmentlar soni, 3) ko`krak qismidagi sigmentlar soni, 4) dumg`aza qismidagi sigmentlar soni, 5) dum qismidagi sigmentlar soni a) 5 ta, b) 8 ta, c) 12 ta, d) 1-3 ta

A) 1b, 2a, 3c, 4a 5d, B) 1b, 2a, 3a, 4d, 5a,

C) 1b, 2c, 3a, 4a, 5d, D) 1a, 2b, 3c, 4d,

9. Orqa miyaning kulrang moddasidan qanday nervlar chiqadi ?

A) simpatik,

B) harakatlantiruvchi, sezuvchi, vegetative,

C) 31 juft sezuvchi, harakatlantiruvchi nerv tolalari,

D) 12 juft harakatlantiruvchi nerv,

10. Orqa miyaning turli segmentlaridagi nerv hujayralarini bir-biriga va bosh miyaning nerv hujayralari bilan tutash tirish funksiyasini orqa miyaning qaysi qismi bajaradi?

A) oq modda,

B) kulrang modda,

C) orqa miyaning sigmentar qismi,

D) orqa miyaning pastki8 qismi,

11. Orqa miyaning kulrang moddasida ... bo`ladi ?

A) bir juft oldingi, bir juft orqa, bir juft yon shoxlar bo`ladi,

B) oldingi shoxlarda sezuvchi nerv hujayralar,

C) orqa shoxlarda sezuvchi nerv hujayralari, oldingi shoxlarida harakatlantiruvchi nerv hujayralari, yon shoxlarida vegetative nerv hujayralar joylashgan,

D) ohaksimon modda,

12. Orqa miya necha xil funksiyani bajaradi ?

A) 1 xil, B) 2 xil, C) 3 xil, D) juda ko`p,

13. Orqa miya reflektor funksiyasi ... dan iborat?

A) o`tkazuvchanlik,

B) reflekslar hosil qilish,

C) ta`surotlarni qabul qilish va o`tkazish,

D) orqa miyaning turli sigmentlarini bir-biri bilan bog`lash,

14. Refleks bu ...?

A)organizmni tashqi muhit ta`sirlarida javob reaksiyasi,

B) organizmni ichki muhit ta`sirlarida javob reaksiyasi,

C) ta`surotlar qabul qilish, va uzatish,

D) organizmni tashqi va ichki muhit ta`sirlarida organizmning javob reaksiyasi,

15. Orqa miyaning ko`ndalang kesimida oq va kulrang moddalar farqlanadi. Oq modda (1) va kulrang modda (2) nimadan tashkil topgan?

a) nerv hujayralaridan; b) nerv tolalaridan;c) neyrogliyadan; d) retseptorlardan

A) 1-b, 2-a

B) 1-a, 2-c

C) 1-c, 2-d

D) -a, 2-b

16. Orqa miyaning qaysi segmentida joylashgan nerv markazlari qo'lning tashqi yuzasi, kaft, barmoqlarning terisi va muskullarining sezish va harakatlanish funksiyasini ta'minlaydi?

A) ko'krak B) bel C) dumg'aza D) bo'yin

17. Orqa miyaning qaysi segmentida joylashgan nerv markazlari qo'lning ichki yuzasi teri va muskullarining sezish va harakatlanish funksiyasini ta'minlaydi?

A) ko'krak B) bel C) dumg'aza D) bo'yin

18. Refleks yoki ketma-ketlik bilan berilgan qatorini aniqlang

1) retseptor, 2) sezuvchi nerv tolasi, 3) harakatlanuvchi nerv tolasi, 4) nerv markazi, 5) ishchi organ

A) 1,2,4,3,5, B) 1,2,3,4,5, C) 1,2,5,3,4, D) 1,3,4,5,

19. Refleks yoyining har bir qismi bajaradigan funksiyalarini to'g'ri yoritilgan javobni aniqlang?

1) retseptor, 2) sezuvchi nerv tolasi, 3) nerv markazi, 4) harakatlanuvchi nerv tolasi, 5) ishchi organ, a) miyada joylashgan sezuvchi, oraliq va harakatlanuvchi nerv hujayralaridan iborat, b) to'qima va organlarda joylashgan bo'lib, tashqi va organlarda joylashgan bo'lib tashqi va ichki muhit ta'sirini qabul qilib qo'zg'atadi, c) retseptorning qo'zg'alishidan hosil bo'lgan impulsni nerv markaziga yetkazadi, d) muskul, bel, qon tomirlari ichki organlar, e) nerv markazi; aridagi qo'zg'alishni ishchi organga yetkazadi

A) 1b, 2c, 3a, 4e, 5d, B) 1a, 2b, 3c, 4d, 5e,

C) 1b, 2c, 3a, 4d, 5e, D) 1c, 2a, 3b, 4d, 5e,

20. Tizza reflekslarini hosil bo'lishi, refleks yoyi, ketma-ketlik bilan berilgan qatorni aniqlang? 1) reseptor sezuvchi nerv tolasi, 2) oraliq nerv hujayra, 3) sezuvchi nerv hujayra, 4) harakatlanuvchi nerv hujayra, 5) harakatlanuvchi nerv tolasi, 6) muskul

A) 1,3,2,4,5,6, B) 1,2,3,4,5,6, C) 1,3,4,2,5,6, D) 1,2,4,5,6,

21. Orqa miya kulrang moddasi ... joylashgan

1) oldingi shoxlarida; 2) orqa shoxlarida; 3) yon shoxlarida;

a) vegetativ nerv hujayralari, b) sezuvchi nerv hujayralari; v) harakatlantiruvchi nerv hujayralari.

A) 1-a; 2-b; 3-v B) 1-b; 2-a; 3-v C) 1-v; 2-b; 3-a D) 1-b; 2-v; 3-a

22. Orqa miya kulrang moddasining necha juftdan oldingi, orqa, yon shoxlari bo'ladi?

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

23. Umurtqa pog'ona ichidagi orqa miya uch qavat parda bilan o'ralgan. Tashqi (1), o'rta (2) va ichki (3) qavatlar qanday pardalardan iborat?

a) qattiq; b) yumshoq; c) o'rgimchak to'rsimon; d) ohakli

A) 1-b, 2-c, 3-a B) 1-a, 2-c, 3-b C) 1-d, 2-a, 3-b D) 1-a, 2-b, 3-d

24. Orqa miyada joylashgan nerv markazlarining ishi buzilganda, muskullarda nima ro'y beradi?

A) periferik shollik B) markaziy shollik;

C) muskullar taranglashadi D) barchasi;

25. Odamlarning orqa miyasida ... dan ko'proq nerv hujayralari bo'ladi?
 A) 13 mlrd B) 13 mln C) 12 mlrd D) 13 ming
26. Orqa miyaning o'n oltinchi segmentidan chiqmaydigan nervlarni belgilang?
 a) oldingi shox b) yon shox c) orqa shox; 1) sezuvchi nerv 2) harakatlantiruvchi nerv 3) aralash nerv 4) simpatik nerv 5) parasimpatik nerv
 A) a-1,2,4,5; b-1,2,3,5; c-3,4,5 B) a-2,3,4,5; b-1,2,3,5; c-2,3,4,5
 C) a-1,3,4,5; b-1,2,3,4; c-2,3,4,5 D) a-1,3,4,5; b-1,2,3,5; c-2,3,4,5
27. Orqa miyaning ko'ndalang kesimida oq va kulrang moddalar farqlanadi. Oq modda (1) va kulrang modda (2) nimadan tashkil topgan? a) nerv hujayralaridan; b) nerv tolalaridan; c) neyrogliyan; d) retseptorlardan
 A) 1-b, 2-a B) 1-a, 2-c C) 1-c, 2-d D) 1-a, 2-b
28. Orqa miyaning o'n beshinchi segmentidan chuquvchi nervlarni ko'rsating
 a) oldingi shox b) yon shox c) orqa shox; 1) sezuvchi nerv 2) harakatlantiruvchi nerv 3) aralash nerv 4) simpatik nerv 5) parasimpatik nerv
 A) a-1; b-3; c-2 B) a-2; b-3; c-1 C) a-2; b-5; c-1 D) a-2; b-4; c-1
29. Orqa miyaning oq moddasini vazifasi?
 A) reflektor B) o'tkazish C) himoya D) tayanch;
30. Orqa miyaning orqa shoxdan chiqqan nerv tolasi qanday nomlanadi?
 A) sezuvchi B) harakatlantiruvchi C) aralash D) adashgan
31. Orqa miyaning qaysi segmentida joylashgan nerv markazlari qo'lning ichki yuzasi teri va muskullarining sezish va harakatlanish funksiyasini ta'minlaydi?
 A) ko'krak B) bel C) dumg'aza D) bo'yin
32. Orqa miyaning qaysi segmentida joylashgan nerv markazlari qo'lning tashqi yuzasi, kaft, barmoqlarning terisi va muskullarining sezish va harakatlanish funksiyasini ta'minlaydi?
 A) ko'krak B) bel C) dumg'aza D) bo'yin
33. Orqa miyaning yigirma yettinchi segmentidan chiqmaydigan nervlarni belgilang?
 a) oldingi shox b) yon shox c) orqa shox; 1) sezuvchi nerv 2) harakatlantiruvchi nerv 3) aralash nerv 4) simpatik nerv 5) parasimpatik nerv
 A) a-1,2,4,5; b-1,2,3,5; c-3,4,5 B) a-2,3,4,5; b-1,2,3,5; c-2,3,4,5
 C) a-1,3,4,5; b-1,2,3,4; c-2,3,4,5 D) a-1,3,4,5; b-1,2,3,5; c-2,3,4,5
34. Orqa miyaning yigirma yettinchi segmentidan chiquvchi nervlarni belgilang?
 a) oldingi shox b) yon shox c) orqa shox; 1) sezuvchi nerv 2) harakatlantiruvchi nerv 3) aralash nerv 4) simpatik nerv 5) parasimpatik nerv
 A) a-1; b-3; c-2 B) a-2; b-3; c-1 C) a-2; b-5; c-1 D) a-2; b-4; c-1
35. Orqa va bosh miyadagi nerv hujayralari atrofida qanday hujayralar joylashgan?
 A) neyron B) neyrogliya C) epiteliy D) miofibril.
36. Orqa miyaning bo'yin sigmentida joylashgan nerv markazlari tananing qaysi qismida sezish va harakatlanish funksiyasini ta'minlaydi
 A) bosh miyaning,
 B) bosh va bo'yin sohasini,
 C) tananing bosh sohasidan to ko'krak 5- qovurg'asiga,

D) qo`lning tashqi yuzi, kaft va barmoqlarning terisi hamda muskullar, tananing bosh sohasidan to ko`krak 5- qovurg`asiga,

37. Ko`krak qafasining 5- qovurg`asidan qovuqqa qadar va qo`lning ichki yuzi ,teri muskullarini sezish va harakatlanish funksiyasini orqa miyaning qaysi sigmenti bajaradi?

A) orqa miyaning bel sigmenti,

B) orqa miyaning ko`krak sigmentidagi nerv markazlari,

C) orqa miyaning dumg`aza sigmentidagi joylashgan nerv markazlari,

D) orqa miyaning bo`yin qismi sigmentlaridagi nerv markazlari,

38. Qovuq sohasidan boshlab oyoqlarni oldingi sohasi, barmoqlarning uchigacha bo`lgan organlarni sezish va harakatlanish funksiyasini orqa miyaning qaysi sigmentlarida joylashgan nerv markazlari boshqaradi?

A) bo`yin, B) bel, C) qorin, D) ko`krak,

39. Orqa miya suyuqligi qayerda joylashgan

A) qattiq va o`rgimchak to`rsimon parda orasida

B) qattiq va ichki parda orasida

C) o`rgimchak to`rsimon va ichki parda orasida

D) oq va kulrang modda orasida

40. Periferik nerv sistemasiga jami nechta nervlar va nerv tolalari kiradi?

A) 43 B) 55 C) 74 D) 86

41. Periferik nerv sistemasiga kiruvchi nerv tolalari sonini ko`rsating?

A) orqa miyadan chiquvchi 31 juft, bosh miyadan chiquvchi 12 ta

B) orqa miyadan chiquvchi 31 ta, bosh miyadan chiquvchi 12 ta

C) orqa miyadan chiquvchi 31 ta, bosh miyadan chiquvchi 12 juft

D) orqa miyadan chiquvchi 31 juft, bosh miyadan chiquvchi 12 juft

42. Bosh miya qanday funksiyalarni bajaradi?

1. miyaning qismlarini birlashtirib turadi, 2. aql idrok , fikrlash, qobiliyat, ong, ruhiy xususiyatni ta`minlaydi, 3. tashqi va ichki muhitni ta`sirini analiz va sintez qilib, unga javob qaytaradi, 4. katta yarim shar ishini boshqaradi, 5. tananing barcha to`qima va a`zolari ish faoliyatini bir- biriga bog`lab boshqaradi, 6. organizm bilan tashqi muhitning aloqasini ta`minlab, uni muhit sharoitiga moslashtiradi

A) 1,2,3,5,6, B) 2,3,5,6, C) 1,2,4,5,6, D) 1,3,5,6,

43. Bosh miyaning og`irligi katta odamda qancha bo`ladi?

A) 2020-2970 gr, B) 1020-1970 gr, C) 1-1,5 kg, D) 1,5-2 kg,

44. Odamning aqliy faoliyati nimaga bog`liq?

A) miya suyuqligiga,

B) miya egatchalariga,

C) bosh miya hajmiga,

D) bosh miya yarimsharlari po`stloq qismidagi nerv hujayralarining murakkab fiziologik biokimyoviy fizik xususiyatlariga bog`liq,

45. Bosh miya necha qismdan iborat?

A) 2 ta, B) 3 ta, C) 4 ta, D) 5 ta,

46. Bosh miyaning stvol qismiga miyaning qaysi qismlari kiradi?
A) uzunchoq va orqa miya,
B) uzunchoq miya, voroliy ko`prigi, o`rta miya, miyacha, oraliq miya
C) katta yarim sharlar, uzunchoq miya,
D) miyacha, uzunchoq, orqa miya,
47. Odamning miya sopidan nechta bosh miya nervlari chiqadi?
A) 12; B) 10; C) 31; D) 31-33
48. Uzunchoq miya shikastlanishi natijasida qaysi organlar faoliyatini nerv yo`li bilan boshqarish buziladi?
1) yurak 2) bronx 3) qalqonsimon bez 4) siydik qopi 5) me`da 6) ichak 7) epifiz
A) 1,2,4,5,6 B) 1,2,3,4,5,6,7 C) 1,2,4,5,6,7 D) 1,2,5,6
49. Uzunchoq miyada qanday markazlar joylashgan? 1) nafas olish; 2) ovqat hazm qilish bezlarining shira ajralishi; 3) harakat; 4) yurak faoliyati; 5) moddalar almashinuvi
A) 1,2, 4 B) 2, 3, 4 C) 3, 4,5 D) 3, 5
50. Uzunchoq miyadagi nafas olish markazidan har... ritmik ravishda nerv impulslari orqa miyaning ... qismida joylashgan ... muskullar harakatini boshqaruvchi nerv markazlariga ta`sir qilib, ularni qo`zg`atadi.
A) 2-3 sekundda; ko`krak va bel; diafragma va qovurg`alararo
B) 4-5 sekundda; bo`yin va ko`krak; diafragma va qovurg`alararo
C) 4-5 sekundda; bel va bo`yin; diafragma va qovurg`alararo
D) 4-5 minutda; bo`yin va ko`krak; qovurg`alararo tashqi va ichki
51. Uzunchoq miyadan chiqqan parasimpatik nerv tolalari odamning qaysi organlariga boradi?
A) faqat qorin bo`shlig`ining yuqori qismida joylashgan organlarga;
B) ichki organlar, bosh va yuz sohasidagi organlarga;
C) chanoq bo`shlig`ida joylashgan organlarga;
D) qorin bo`shlig`ining pastki qismida joylashgan organlarga;
52. Uzunchoq miyaning uzunligi(1), vazni(2), tashqi qismi(a), ichki qismi(b) qanday rangda bo`lishi to`g`ri berilgan qatorni aniqlang?
1) 3-3,5sm, 2) 7g; 3) 0,5-0,6g, 4) 0,2g, 5) 5-6sm, a) oq, b) kulrang;
A) 1, 2, a, b; B) 1, 3, a,b; C) 5, 2, b, a; D) 1, 4, b,a;
53. Uzunchoq miyaning shikastlanishi nimaga olib keladi?
A) muskullar taranglashadi va nafas olish qiynlashadi;
B) nafas olishning va yurak ishining to`xtab qolishiga;
C) nafas olish va yurak urishi tezlashadi; D) tana harorati pasayadi;
54. Uzunchoq miya qayerda joylashgan, uning uzunligi va massasi qancha?
A) umurtqa pog`onasi kanalida uzunligi 3-3,5 sm, massasi 7 gr,
B) bosh miyaning pastki qismida joylashgan bo`lib, uning quyi qismi orqa miyaga, yuqori qismi miya ko`prigiga tutashgan 3-3,5 sm, 7 gr,
C) Bosh miyaning ensa qismida 1-1,5 sm, 5-6 gr,
D) orqa miyaning boshlang`ich qismi bo`lib, uzunligi 0,7- 0,9 sm, og`irligi 1-1,5 gr,

55. Nafas olish, yurak ishini boshqaruvchi nerv markazlari qayerda joylashgan?
 A) orqa miyada, B) uzunchoq miyada,
 C) katta yarim sharlarda, D) miyachada,
56. Yuqori tomondan oʻrta miya, yon tomonlardan miyacha bilan tutashib turadigan bosh miyaning boʻlimini aniqlang.
 A) gipotalamus B) oraliq miya
 C) miya koʻprigi D) uzunchoq miya
57. Miya koʻprigiga xos boʻlmagan xususiyatlarni belgilang?
 1) yuqori tomondan oʻrta miya bilan chegaralangan 2) yuqori tomondan gipotalamus bilan chegaralangan 3) yon tomondan miyacha bilan tutashgan 4) uchlik koʻz soqqasi adashgan nerv markazi joylashgan 5) uchlik koʻz soqqasi va yuz muskullarini harakatlantiruvchi nerv markazlari joylashgan
 A) 1,3,4 B) 2,4 C) 1,3,5 D) 2,3,4
58. Miya koʻprigi qaerda joylashgan?
 A) uzunchoq miyaning ustki qismida; B) uzunchoq miyaning ostki qismida;
 C) oʻrta miyaning ustida; D) orqa miyaning ustida;
59. Miya koʻprigi ustida ... joylashgan.
 A) talamus B) gipotalamus C) miyacha D) oʻrta miya
60. Ushbu berilganlarning qaysi birida uchlik va koʻz soqqasini harakatlantiruvchi nervlarning markazlari joylashgan.
 A) miya koʻprigi B) oraliq miya C) uzunchoq miya
61. Miya koʻprigiga xos boʻlmagan (a) va xos boʻlgan (b) xususiyatalarni koʻrsating?
 1) uzunchoq miyaning ostki qismida joylashgan 2) bu yerda uchlik, koʻz soqqasi va til muskullarini harakatlantiruvchi nerv markazlari joylashgan 3) yon tomondan miyacha bilan tutashgan 4) ogʻriqni sezuvchi retseptorlarining poʻstloqosti markazi joylashgan 5) oʻrta miya bilan tutashgan
 A) a-2,4; b-1,3,5 B) a-3,5; b-1,2,4 C) a-4; b-1,2,3,5 D) a-1,2,4; b-3,5
62. Oʻrta miyaga xos boʻlgan xususiyatlarni belgilang?
 1) simpatik nerv markazi joylashgan 2) parasimpatik nerv markazi joylashgan 3) uchlik va adashgan nerv markazi joylashgan 4) poʻstloqosti koʻrish va eshitish markazi joylashgan 5) ustki tomondan miya koʻprigi bilan chegaralangan.
 A) 2,3,5 B) 1,3,5 C) 2,4 D) 1,4
63. Oʻrta miyaga xos boʻlmagan xususiyatlarni belgilang?
 1) simpatik nerv markazi joylashgan 2) parasimpatik nerv markazi joylashgan 3) uchlik va adashgan nerv markazi joylashgan 4) poʻstloqosti koʻrish va eshitish markazi joylashgan 5) ustki tomondan miya koʻprigi bilan chegaralangan.
 A) 2,3,5 B) 1,3,5 C) 2,4 D) 1,4
64. Oʻrta miyaga xos boʻlmagan (a) va xos boʻlgan (b) xususiyatalarni koʻrsating?
 1) toʻrt tepalikning orqadagi ikkita tepaligida poʻstloq osti koʻrish markazi joylashgan
 2) Varoliyev koʻprigining yuqorisida joylashgan 3) eshitish nervi orqali kelgan qoʻzgʻalishning bosh miy yarimsharlari poʻstlogʻining chakka qismidagi quyi

eshitish markaziga o'tkazadi 4) ko'rish nervi orqali kelgan qo'zg'alishni bosh miya yarimsharlari po'stlog'ining ensa qismidagi oliy nerv markaziga o'tkazadi

A) a-3,4; b-1,2 B) a-2,4; b-1,3 C) a-1,3; b-2,4 D) a-1; b-2,3,4

65. Po'stloq osti ko'rish markazlari , po'stloq osti eshitish markazlari qayerda joylashgan?

A) uzunchoq miyada, B) o'rta miyada,

C) oraliq miyada, D) miyachada,

66. Ko'rish do'mbog'i va do'mboq osti sohasi qaysi miyaning tarkibiy qismi hisoblanadi?

A) oraliq miya B) o'rta miya

C) miya ko'prigi D) po'stloq osti markazi

67. Odam tanasidagi barcha muskullarning harakatlarining tartibli bajarilishi, muvozanatda bo'lishini bosh miyaning qaysi qismi ta'minlaydi?

A) o'rta miya B) miyacha C) oqimtir yadro D) targ'il tana

68. Miyacha qayerda joylashgan, massasi qancha?

A) bosh miya yarim sharlarining ensa bo'lagining ostida, 150 gr,

B) oraliq miya yonida, 120 gr,

C) uzunchoq miyaning ustida, 90 gr,

D) katta yarim sharlar ostida, 140 gr,

69. Miyacha shikastlansa, yoki kasallansa:

1. tana muskullari bo'shashadi, 2. odam tik turish, yugurish, sakrash, harakatlari qiyinlashadi, 3. sezuvchanlik yo'qoladi, 4. odam mast odamga o'xshab gindiraklab yuradi, 5. muvozanat koordinatsiyasi susayadi

A) 1,2,4,5, B) 1,2,3,4, C) 1,3,4, D) 1,3,4,5,

70. Oqimtir yadro bosh miyaning qaysi qismlarining funksiyalarini boshqaradi?

1) miyacha 2) uzunchoq miya 3) miya ko'prigi 4) o'rta miya 5) oraliq miya

A) 1,4,5 B) 1,2,3 C) 3,4 D) 4,5

71. Oqimtir yadro bosh miyaning qaysi qismlarining funksiyalarini boshqarishda ishtirok etmaydi?

1) miyacha 2) uzunchoq miya 3) miya ko'prigi 4) o'rta miya 5) oraliq miya

A) 1,4,5 B) 1,2,3 C) 3,4 D) 4,5

72. Oqimtir yadro zararlansa, qanday holat kuzatiladi?

A) muskullar tonusi pasayadi, qo'l va oyoqlar osilib qoladi

B) qo'l va oyoqlar harakati qiyinlashadi, yuz muskullarining tarangligi oshadi

C) tana muskullari tarangligi pasayib, ixtiyorsiz harakatlar paydo bo'ladi

D) muskullar tarangligi oshadi, qo'l-oyoqlar tarashadek qotib qoladi

73. Oqimtir yadro (1), targ'il tana (2) zararlansa qanday hodisalar namoyon bo'ladi?

a) tana muskullarining tarangligi pasayadi; b) oqimtir yadroning ishi kuchayadi; c) ixtiyorsiz harakatlar paydo bo'ladi; d) muskullarning tarangligi ortadi; e) qo'l-oyoqlarning harakati qiyinlashadi; f) yuz muskullarining tarangligi ortadi

A) 1- a, b, c; 2 -d, e, f B) 1- d, e, f; 2-a, b, c

C) 1 - a, c, d; 2- b, e, f D) 1- a, c, f; 2 - b, c, d

74. Tana muskullarining harakatini boshqaruvchi nerv markazlari qayerda joylashgan?

1) miyachada; 2) oqimtir yadroda; 3) uzunchoq miyada; 4) varoliy ko'prigida

A) 1 B) 1,2 C) 2,3 D) 1,4

75. Po'stloq osti nerv markazi necha qismdan iborat?

A) 2 B) 3 C) 4 D) 5

76. Oqimtir yadroning vazifasini belgilang.

A) tana muskullari tarangligini va harakatini boshqaradi;

B) oraliq va o'rta miyaning ishini boshqaradi;

C) chaynash va yutish jarayonlarni boshqaradi;

D) tana muskullari tarangligini va harakatini boshqaradi; oraliq va o'rta miyaning ishini boshqaradi;

77. Oqimtir yadro ishini nima boshqaradi?

A) katta yarimsharlar, B) targ'il tana, C) miyacha, D) talamus,

78. Oqimtir yadro qanday markaz hisoblanadi?

A) nafas olish va harakatlanishni boshqaradi

B) tana muskullar tarangligi va harakatlarini boshqaruvchi

C) eshitish va sezishni boshqaradi

D) munozanat va ko'rishni boshqaradi

79. Oqimtir yadro zararlansa odamda qanday o'zgarishlar yuz beradi?

1) tana muskullari tarangligi ortadi; 2) tana muskullari tarangligi pasayadi, 30 qo'l- oyoqlarning harakati qiyinlashadi; 4) muskullar lattadek osilib qoladi; 5) yuz muskulari bo'shashdi; 6) yuz bir tomonga osilib qoladi; 7) yuz muskullari tarangligi ortadi

A) 1, 3, 7 B) 2, 3, 4 C) 1, 5, 6 D) 1, 2, 5

80. Odam bosh miyasida qaysi nerv markazi shikastlansa, tana muskullarining tarangligi pasayib, odamda ixtiyorsiz harakatlar paydo bo'ladi?

A) miyacha B) oqimtir yadro C) targ'il tana D) uzunchoq miya

81. O'ng va chap yarimsharlar uchun umumiy bo'lgan oliy nerv markazlarini ko'rsating.

1) hid bilish; 2) siypalash; 3) eshitish; 4) gapirish; 5) intonatsiya; 6) hisoblash;

7) mo'ljal olish; 8) o'qish; 9) geometrik shakllarni aniqlash; 10) ko'rish

A) 1,2,3,4,10 B) 1, 2, 3, 10 C) 1, 2, 3, 4, 6, 7, 10 D) 1, 3, 5, 8, 9, 10

82. Tananing chap tomonidagi to'qima va organlar ishini miyaning qaysi qismi boshqaradi?

A) o'ng yarim shar, B) chap yarim shar,

C) oily nerv markazi, D) bosh miya,

83.. I – Bosh miya yarim sharlarining 1) tashqi va 2) ichki qavati qanday moddadan tashkil topgan II – Po'stloq qavatining qalinligi b) nerv hujayralari soni qancha?

A) I - 1) oq, 2) kulrang, II - a) 25-30 mm, b) 14-16 mlrd

B) I - 1) kulrang, 2) oq; II - a) 25-30 mm b) 12-16 mln

C) I - 1) kulrang 2) oq; II - a) 25-30 mm, b) 14-16 mlrd

- D) I - 1) oq, 2) kulrang; II - a) 20-25 mm b) 14-16 mlrd
84. Miya po'stlog'i mikroskopda tekshirilganda undagi nerv hujayralari 6 qavat bo'lib, uchinchi qavatida qanday hujayralar bo'ladi?
A) donasimon B) yirik piramidasimon C) yulduzsimon D) piramidasimon
85. Ma'lumki, miya po'stlogining nerv hujayralari olti qavatdan iborat bo'lib, uning eng pastki qismida qanday hujayralar joylashgan?
A) piramidasimon B) yulduzsimon
C) nerv hujayralarining kalta o'simtalari D) duksimon
86. Bosh miyaning oq moddasini zararlovchi virusni ko'rsating?
A) polimiyelit B) qutirish C) OITV D) adenovirus
87. Bosh miyaning qaysi qismi gormonlar ishlab chiqaradi?
A) uzunchoq miya B) o'rta miya C) miya ko'prigi D) oraliq miya
88. Bosh va yuz sohasidagi organlarni boshqaruvchi nervlarni ko'rsating?
1) o'rta va uzunchoq miyadagi simpatik nervlar 2) adashgan nerv 3) o'rta va uzunchoq miyadagi parasimpatik nervlar 4) orqa miyaning ko'krak segmentlaridan chiquvchi simpatik nervlar
A) 1,2 B) 2,3 C) 3,4 D) 2,4
89. Bosh miya shikastlanganda yoki miyaga qon quyilganda qanday holat kuzatiladi?
A) muskullar tonusi pasayadi, qo'l va oyoqlar osilib qoladi
B) qo'l va oyoqlar harakati qiyinlashadi, yuz muskullarining tarangligi oshadi
C) tana muskullari tarangligi pasayib, ixtiyorsiz harakatlar paydo bo'ladi
D) muskullar tarangligi oshadi, qo'l-oyoqlar tarashadek qotib qoladi
90. Bosh miya katta yarim sharlari po'stlog'ining qaysi qismi ta'sirlarni analiz va sintez qilishda muhim rol o'ynaydi?
A) assotsiativ B) ensa, chakka C) sezish D) chakka, peshona
91. Bosh miya po'stlog'idagi (1) va orqa miyada (2) joylashgan nerv markazlarining ishi buzilganda qanday o'zgarishlar namoyon bo'ladi?
a) muskullarning tarangligi ortadi; b) muskullarning tonusi pasayadi; c) qo'l-oyoq harakatsizlanib, osilib qoladi; d) qo'l-oyoq tarashadek qotib qoladi
A) 1- b,c; 2-a, d B) 1-b, d; 2-a,c C) 1-a, d; 2-b, c D) 1-a,c; 2-b,d
92. Bosh miya po'stlog'ining chekka qismining yuqori va o'rta sohasida qaysi sezgi markazi joylashgan?
A) eshitish B) ko'rish C) ta'm bilish D) hid bilish
93. Bosh miya yarimsharlari po'stlog'i tuzilishining qaysi xususiyatlari unda ko'p miqdorda nerv hujayralari joylashuviga imkon beradi?
1) pushta va egatlar sonining ortishi; 2) bosh miya og'irligining ortishi; 3) po'stloqda hujayralarning 6 qavat bo'lib joylashishi; 4) po'stloqda oliy nerv markazlari sonining ko'payishi
A) 1 B) 1, 3 C) 1, 3, 4 D) 2, 3, 4
94. Bosh miya yarimsharlari qaysi qismida eshitish , markazlari joylashgan?
A) peshona B) chakka C) ensa D) tepa
95. Bosh miyaning qaysi qismining shikastlanishi nafas olishni to'xtatib qo'lishiga

sabab bo'ladi?

A) miyacha B) uzunchoq miya C) o'rta miya D) oraliq miya

96. O'ng va chap yarimsharlar uchun umumiy bo'lgan oliy nerv markazlarini ko'rsating.

1) hid bilish; 2) siypalash; 3) eshitish; 4) gapirish; 5) intonatsiya; 6) hisoblash; 7) mo'ljal olish; 8) o'qish; 9) geometrik shakllarni 9) aniqlash; 10) ko'rish

A) 1, 2, 3, 4, 10 B) 1, 2, 3, 10 C) 1, 2, 3, 4, 6, 7, 10 D) 1, 3, 5, 8, 9, 10

97. O'ng yarimsharlar po'stlog'ining oliy nerv markazlarini ko'rsating.

1) hid bilish; 2) siypalash; 3) eshitish; 4) gapirish; 5) intonatsiya; 6) hisoblash; 7) mo'ljal olish; 8) o'qish; 9) geometrik shakllarni aniqlash; 10) ko'rish

A) 1, 2, 3, 5, 7, 9, 10 B) 1, 2, 3, 4, 6, 8, 10

C) 1, 2, 3, 5, 8, 9, 10 D) 1, 2, 3, 6, 8, 9, 10

98. Qadoqsimon tana qanday funksiyani bajaradi?

A) o'ng va chap yarim sharlarni birlashtirib turadi,

B) o'ng va chap yarim sharlarning bir-biri bilan aloqasini ta'minlaydi,

C) miya hujayralarini oziqlantiradi,

D) miyaning sezuvchanlik xususiyatini oshirib, ta'surotlarni analiz va sintezlaydi,

99. Bosh miya yarim sharlari po'stloq qavatining qalinligi qancha bo'ladi?

A) 1,5-2 mm, B) 2,5-3 mm, C) 10-12 mm, D) 19-22 mm,

100. Bosh miya po'stlog'ida qancha nerv hujayralari joylashgan

A) 100000 dan ortiq, B) 200000 dan ortiq, C) 14-16 mln, D) 14-16 mlrd,

101. Miya po'stlog'ining pushta va egatlarining umumiy sathi qancha?

A) 40 m kv, B) 180 m kv, C) 60 m kv, D) 1468-1670 sm kv,

102. Miya yarim sharlari qanday qismlarga bo'linadi?

A) o'rta, oraliq, uzunchoq miya, B) o'rta, oraliq, miyacha, uzunchoq miya,

C) peshona, chakka, tepa, D) peshona, chakka, tepa, ensa qismiga,

102. Miya po'stlog'i hujayralari joylashish tartibi ketma-ketlik bilan berilgan qatorni toping 1. qavat 2. qavat 3. qavat 4. qavat 5. qavat 6. qavat

a) nerv hujayralari kalta o'simtalardan tashkil topgan, b) piramidasimon hujayralar, c) donasimon hujayralar, d) yirik piramidasimin hujayralardan, e) yulduzsimon tuzilgan hujayralari, j) duksimon nerv hujayralari

A) 1a, 2b, 3c, 4d, 5e, 6j, B) 1a, 2b, 3c, 4d, 5j, 6e,

C) 1a, 2c, 3b, 4e, 5d, 6j, D) 1c, 2a, 3d, 4j, 5e, 6b,

103. Miya po'stlog'ining turli qismlarida joylashgan nerv hujayralarining po'stloq sathi funksiyasiga ko'ra nechta zonaga bo'linadi?

A) 2 ta, B) 3 ta, C) 4 ta, D) 5 ta,

104. Sezgi a'zolarining oliy nerv markazi bosh miya katta yarim sharlarining qayerida joylashgan?

A) o'ng yarim sharda, B) chap yarim sharda,

C) harakat zonasida, D) sezish zonasida,

105. Muskullar, paylar, bo'g'imlar, suyaklarning retseptorlaridan impuls qabul qiluvchi oliy nerv markazi miya po'stlog'ining qaysi zonasida joylashgan?

A) o'ng yarimsharida, B) chap yarim sharida,

- C) harakat zonasida, D) sezish zonasida,
106. Assotsativ zona qanday funksiyani bajaradi?
- A) harakat,
B) sezish,
C) ta'surotlarni analiz va sintez qilish,
D) miya po'stlog'ining turli qismlaridagi nerv hujayralarini bir-biri bilan bog'laydi,
107. Miya po'stlog'ining qaysi qismlarida qanday sezgi markazlari joylashgan?
1. po'stloqning ensa qismida, 2. chakka qismida, 3. peshona qismining ostki ichkari sohasida, 4. tepa qismidagi oldingi markaziy pushtasida, 5. orqa markaziy pushtasida, a) eshitish, b) ko'rish, c) harakat, d) hid bilish, e) tana terisini sezgi markazlari
- A) 1b, 2e, 3d, 4c, 5c, B) 1b, 2a, 3d, 4c, 5e,
C) 1a, 2b, 3d, 4c, 5e, D) 1c, 2a, 3c, 4d, 5e,
108. Bosh miya yarim sharlarining ichki(po'stloq osti) qismi oq moddasi qanday funksiyani bajaradi ?
- A) miya po'stlog'ining turli qismlaridagi hujayralarni, ya'ni nerv markazlarini bir-biri bilan bosh miyaning quyi qismidagi markazlari bilan bog'laydi,
B) miya to'qimalari uchun zapas oziq bo'lib xizmat qiladi,
C) oliy nerv markazining asosi bo'lib, odamning aqliy taraqqiyot darajasini belgilaydi,
D) vegetativ nerv sistemasini ishinmi boshqaradi,
109. Gapirish markazi, yarim sharlarning qaysi qismida joylashgan ?
- A) o'ng yarim shar po'stlog'ining chakka qismida,
B) chap yarim sharda,
C) assotsativ zonada,
D) chap yarim shar po'stlog'ining chakka qismida,
110. Gapga intonatsiya ohang berish markazi qayerda joylashgan ?
- A) o'ng yarim shar po'stlog'ining chakka qismida,
B) chap yarim sharda,
C) assotsativ zonada,
D) chap yarim shar po'stlog'ining chakka qismida,
111. O'ng yarimsharlar po'stlog'ining oliy nerv markazlarini ko'rsating.
- 1) hid bilish; 2) siypalash; 3) eshitish; 4) gapirish; 5) intonatsiya; 6) hisoblash;
7) mo'ljal olish; 8) o'qish; 9) geometrik shakllarni aniqlash; 10) ko'rish
- A) 1,2,3,5,7, 9,10 B) 1 2,3,4 6,8 10 C) 1,2,3,5,8,9,10 D) 1, 2 3 6 8, 9, 10
112. Chap yarimsharlar po'stlog'ining oliy nerv markazlarini ko'rsating.
- 1) hid bilish; 2) siypalash; 3) eshitish; 4) gapirish; 5) intonatsiya; 6) hisoblash;
7) mo'ljal olish; 8) o'qish; 9) geometrik shakllarni aniqlash; 10) ko'rish
- A) 1,2 3,5,7, 9, 10 B) 1, 2,3, 4,6, 8, 10 C) 1,2,3 5,8,9, 10 D) 1,2,3,6,8,9, 10
113. Bosh miya yarimsharlarining qaysi qismida eshitish markazlari joylashgan ?
- A) peshona B) chakka C) ensa D) tepa
- 114..Oq moddadan iborat nerv sistemasi qismlarini ko'rsating.

1) targ'il tana; 2) oqimtir yadro; 3) orqa miyaning tashqi qismi; 4) orqa miyaning ichki qismi; 5) bosh miya yarimsharlari po'stlog'i tashqi qismi;

6) bosh miya yarimsharlari po'stlog'ining ostki qismi

A) 3,6 B) 1, 2, 4, 5 C) 2, 3, 6 D) 2,3,5

115. Kulrang moddadan iborat nerv sistemasi qismlarini ko'rsating.

1) targ'il tana; 2) oqimtir yadro; 3) orqamiyaning tashqi qismi; 4) orqa miyaning ichki qismi; 5) bosh miya yarimsharlari po'stlog'i; 6) bosh miya yarimsharlari po'stlog'ining ichki qismi

A) 3, 6 B) 1, 2, 4, 5 C) 2, 3, 6 D) 2,3,5

116. Bosh miya yarimsharlari po'stlog'i tuzilishining qaysi xususiyatlari unda ko'p miqdorda nerv hujayralari joylashuviga imkon beradi?

1) pushta va egatlar sonining ortishi; 2) boshmiya og'irligining ortishi;

3) po'stloqdahujayralarning 6) qavat bo'lib joylashishi; 4) po'stloqda oliy nerv markazlari sonining ko'payishi

A) 1 B) 1,3 C) 1, 3, 4 D) 2, 3, 4

117. Vegetativ nerv sistemasi nechta qismga bo'linadi?

A) bo'linmaydi, B) 2 qismga, C) 3 qismga, D) 4 qismga,

118. Vegetativ nerv sistemasining markazlari qayerda joylashgan?

1) orqa miyaning birinchi ko'krak sigmentidan to uchinchi bel sigmentigacha,

2) orqa miyaning dumg'aza sigmentlarida,

3) bosh miyaning pastki qismlarida (uzunchoq va o'rta miyada) ,

4) orqa miyaning bo'yin segmenti, 5) orqa miyaning dum segmenti

A) 1,2,3 B) 1,2,4 C) 3,4,5 D) 4,5

119. Vegetativ nerv sistemasi funksiyasiga kirmaydi?

1) ichki organlar ishini boshqarish 2) sezgi organlar ishini boshqarish 3) ichki sekretiya bezlari ishini boshqarish 4) sklet muskullar ishini boshqarish

A) 1,2 B) 2,3 C) 1,3 D) 2,4

120. Vegetativ nerv sistemasi qaysi organlar ishini boshqaradi ?

A) nafas olish, qon aylanish, skelet muskullari

B) endokrin bezlar, sezgi organlari

C) ovqat, hazm qilish, ayirish, nafas olish, qon aylanish, endokrin bezlar

D) ichki organlar, skelet muskullar

121. Vegetativ nerv sistemasining funksiyasi ... muhim biologik ahamiyatga ega.

A) nerv impularining tartqalishida

B) nerv hujayralarining o'zaro bo'lanishida

C) nerv hujayralaridagi moddalar almashinuvini boshqarishda

D) organizmning tashqi muhit sharoitiga moslashuviga

122. Umurtqa pog'onasining atrofida joylashgan nerv tugunlarining ahamiyatini ko'rsating?

A) vegetativ nerv sistemasining faoliyatini kuchaytiradi

B) bu yerdan parasimpatik nervlar boshlanadi

C) bu yerda adashgan nerv markazi joylashgan

D) bu yerda simpatik nervlarning birinchi qismi tugab, ikkinchi qismi boshlanadi

123. Simpatik nerv sistemasi nervlari qayerdan chiqadi (a) va qayerga boradi (b)?
 A) a-orqa miyaning orqa shohlaridan; b- ichki organlarga B) a-orqa miyaning oldingi shohlaridan; b-ichki organlarga
 C) a- orqa miyaning shohlaridan; b- nerv tugunlariga, undan organ va to‘qimalarga
 D) a-orqa miyaning yon shohlaridan; b- organ va to‘qimalarga
124. Simpatik nervlarning parasimpatik nervlardan farqini ko‘rsating?
 1) nervlar orqa va bosh miyadan chiqadi 2) nervlar faqat orqa miyadan chiqadi
 3) nerv tolalari ichki qismdan iborat 4) faqat ovqat hazm qilish va ayirish organlari ishini susaytiradi 5) barcha organlar ishini kuchaytiradi
 A) 1,4 B) 2,3,4 C) 2,5 D) 1,3,4
125. Simpatik va parasimpatik nervlarning umumiy xususiyatlarini ko‘rsating?
 1) ichki organlar faoliyatini bir xil yo‘nalishda boshqaradi 2) nerv markazlarining joylashishi 3) ichki sekretsia bezlarining ishini boshqaradi 4) moddalar almashinuvi jarayonini boshqaradi
 A) 1,2,4 B) 2,3 C) 3,4 D) 2,3,4
126. Simpatik nerv sistemani markazlari qayerda joylashgan?
 A) bosh miya sopining pastki sohasida(o‘rta va uzunchoq miyada) va orqa miyaning dumg‘aza qismida;
 B) orqa miyaning I nchi ko‘krak segmentidan 3 nchi bel segmentigacha;
 C) ichki organlarning ichida yoki yonida; D) oraliq miyada.
127. Simpatik nerv sistemasi qaysi organlar faoliyatini kuchaytiradi?
 1) yurak-qon tomir; 2) ovqat hazm qilish; 3) siydik ajratish; 4) nafas olish
 A) 2,3 B) 3,4 C) 1,2 D) 1,4
128. Simpatik nerv sistemasi qaysi organlar faoliyatini susaytiradi?
 1) yurak-qon tomir; 2) ovqat hazm qilish; 3) siydik ajratish; 4) nafas olish
 A) 1, 2 B) 2, 3 C) 3,4 D) 1,4
129. Simpatik nerv sistemasining ta‘siri to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni belgilang.
 A) yurak ishini sekinlashtiradi, siydik qopi muskullarini bo‘shashtiradi
 B) me‘da va ichaklarning harakatini susaytiradi, nafas yo‘llarni kengaytiradi
 C) ter ajralishini kuchaytiradi, ko‘z qorachig‘ini toraytiradi
 D) berilganlarning barchasi to‘g‘ri
130. Simpatik nerv tolalari orqa miya segmentining qaysi qismidan chiqadi ?
 A) oldingi shoxidan; B) oq moddasidan;
 C) orqa shoxidan: D) yon shoxidan;
131. Simpatik nerv tolalarining birinchi qismi qayerda tugaydi?
 A) organlarda; B) orqa miyaning oldingi shoxida;
 C) umurtqa pog‘onaning atrofida joylashgan nerv tugunlarida;
 D) to‘qimalarda;
132. Simpatik nerv sistemasi organizmda qanday ishlarni bajaradi ?
 1. yurak ishini tezlashtiradi, 2. yurak ishini sekinlashtiradi, 3. yurak ishini kuchaytiradi, 4. arteriya qon tomirlarini toraytirib qon bosimini oshiradi, 5. me`da va ichak harakatini susaytiradi, 6. siydik qopi muskullarini bo`shashtirib, siydik yig`ilishiga sharoit yaratadi, 7. nafas yo`llarini kengaytiradi, 8. nafas yo`llarini

toraytirib, nafas olishni qiyinlashtiradi, 9. ko`z qorachig`ini kengaytiradi, 10. ter ajralishini kuchaytiradi

A) 1,2,4,5,7,9,10, B) 1,3,4,5,6,7,9,10, C) 1,2,3,5,6,9,10, D) 1,3,5,7,8,9,

133. Simpatik nerv sistemasi qaysi organlar faoliyatini susaytiradi?

1) yurak-qon tomir; 2) ovqat hazm qilish; 3) siydik ajratish; 4) nafas olish

A) 1,2 B) 2,3 C) 3,4 D) 1,4

134 Simpatik nerv sistemasi qaysi organlar faoliyatini kuchaytiradi?

1) yurak-qon tomir; 2) ovqat hazm qilish; 3) siydik ajratish; 4) nafas olish

A) 1,2 B) 2,3 C) 3,4 D) 1,4

135. Simpatik (1) va parasimpatik (2) nerv sistemalarining markazlari to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang

a) o'rta miyada; b) orqa miyaning dumg'aza segmentida; c) orqa miyaning ko'krak segmentidan uchinchi bel segmentigacha; d) uzunchoq miyada

A) 1 - c; 2 - a, b, d B) 1-a, b, d; 2 - c C) 1 - a, b, c; 2-d D) 1-d; 2- a, b, c

136. Simpatik nerv sistinasining ta'siri to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.

A) yurak ishini sekinlashtiradi, siydik qopi muskullarini bo'shashtiradi

B) me'da va ichaklarning harakatini susaytiradi, nafas yo'llarni kengaytiradi

C) ter ajralishini kuchaytiradi, ko'z qorachig'ini toraytiradi

D) Berilganlarning barchasi to'g'ri.

137. Parasimpatik nerv sistemasining nerv markazlari qayerda joylashgan?

A) orqa miyaning birinchi ko'krak sigmentidan to uchinchi bel sigmentigacha,

B) 2-4 dumg`aza sigmentlarida,

C) bosh miyaning pastki qismida, (uzunchoq va o`rta miyada) hamda orqa miyaning dumg`aza sigmentida,

D) orqa miyaning birinchi ko'krak sigmentidan to 3- bel sigmentigacha bo`lgan sohada,

138. Parasimpatik nerv sistemasi organizmda qanday ish bajaradi?

1. yurak ishini sekinlashtiradi, kuchsizlantiradi, 2. yurak ishini kuchaytiradi, tezlatadi,

3. arteriya qon tomirlarini kengaytirib, qon bosimini pasaytiradi, 4, arteriya qon tomirini toraytirib, qon bosimini oshiradi, 5. me`da va ichak harakatini kuchaytiradi, 6. siydik qopi muskullarini qisqartirib, siydik ajralishini ta`minlaydi,

7. bronx hamda ko`z qorachig`ini toraytiradi, 8. ter ajralishini kamaytiradi

A) 1,3,5,6,7,8, B) 1,2,3,5,6,7,8, C) 1,2,4,6,7,8, D) 2,3,4,6,7,8,

139. Parasimpatik nerv sistemasi me`daosti beziga qanday ta`sir qiladi?

A) shira ajratishini ko`paytiradi B) gormon ishlab chiqarishini oshiradi

C) shira ajralishini kamaytiradi D) shira ajralishiga ta`sir qilmaydi

140. Parasimpatik nerv sistemasi qaysi organlar faoliyatini kuchaytiradi?

1) yurak-qon tomir; 2) ovqat hazm qilish; 2)siydik ajratish; 4) nafas olish

A) 1, 2 B) 2, 3 C) 3,4 D) 1,4

141. Parasimpatik nerv sistemasi qaysi organlar faoliyatini susaytiradi ?

1) yurak-qon tomir; 2) ovqat hazm qilish; 3) siydik ajratish; 4) nafas olish

A)1, 2 B)2, 3 C)3,4 D)1,4

142. Odam bosh miyasida qaysi nerv markazi shikastlansa, tana muskullarining tarangligi pasayib, odamda ixtiyorsiz harakatlar paydo bo'ladi?

A) miyacha B) oqimtir yadro C) targ'il tana D) uzunchoq miya

143..Parasimpatik nerv sistemasi qaysi organlar faoliyatini susaytiradi?

1) yurak-qon tomir; 2) ovqat hazm qilish;3) siydik ajratish; 4) nafas olish

A) 1,2 B) 2,3 C) 3,4 D) 1,4

144. Adashgan nervga xos bo'lgan xususiyatlarni ko'rsating?

1) yurak urushini tezlashtiradi 2) me'da va ichaklarning harakatini kuchaytiradi

3) reabsorssiya jarayonini kuchaytiradi 4) jigar va oshqozon osti bezidan shira ajralishini kuchaytiradi

A) 1,2 B) 2,3 C) 1,3 D) 2,4

145. Adashgan nervga xos bo'lmagan xususiyatni ko'rsating?

1) yurak urushini tezlashtiradi 2) me'da va ichaklarning harakatini kuchaytiradi

3) reabsorssiya jarayonini kuchaytiradi 4) jigar va oshqozon osti bezidan shira ajralishini kuchaytiradi

A) 1,2 B) 2,3 C) 1,3 D) 2,4

146. Adashgan nerv qaysi organlar faoliyatini boshqarmaydi?

1) bosh sohasidagi 2) ko'krak qafasi sohasidagi 3) qorin bo'shlig'ining yuqori qismidagi 4) qorin bo'shlig'ining pastki qismi va chanoq bo'shlig'idagi

A) 1,2 B) 2,3 C) 3,4 D) 1,4

147. Adashgan nerv uchun xos xususiyatlarni aniqlang.

1) simpatik nerv; 2) parasimpatik nerv; 3) o'rta miyadan chiqadi; 4) uzunchoq miyadan chiqadi; 5) orqa miyadan chiqadi; 6) so'lak ajralishini kuchaytiradi; 7) ichki organlarga boradi

A) 1, 5, 6 B) 2, 5, 6 C) 2, 4, 7 D) 1, 4, 6, 7

148. Adashgan nerv, bu- ?

A) oraliq va uzunchoq miyadan chiqqan parasimpatik nervning bitta tolasi;

B) simpatik nervning ko'krak segmentidan chiqqan tolasi;

C) o'rta miyadan chiqqan parasimpatik nervning bitta tolasi;

D) uzunchoq miyadan chiqqan ichki organlarga boradigan parasimpatik nervning bitta tolasi;

149. Agar poliomyelit virusi orqa miyaning bel qismini zararlasa, tananing qaysi qismida periferik shol (falajlik) yuzaga keladi?

A) oyoqning orqa yuzasi B) oyoqning oldingi yuzasi

C) qo'lning ichki yuzasi D) qo'lning tashqi yuzasi

150. Markaziy nerv sistemasi qaysi qismlarining yallig'lanishi natijasida meningit (1), ensefalit (2) va miyelit (3) kasalliklari yuzaga keladi?

a) bosh va orqa miya pardalari; b) bosh miya to'qimasi; c) orqa miya to'qimasi

A) 1-a,2-b,3-c B) 1-b, 2-a, 3-c C) 1-c, 2-b, 3-a D) 1-a, 2-c, 3-b

151. Periferik nerv sistemasining kasalliklarini aniqlang.

A) miyelit, meningit B) radikulit, ensefaiit, poliomyelit

C) ganglionit, nevrit, nevrалgiya D) rinit, gastrit, nevrit

152. Periferik nerv sistemasining nerv tugunlarini (1), harakatlantiruvchi

tolalarni(2) va sezuvchi tolalari(3) yallig'lanishi natijasida qanday kasalliklar yuzaga chiqadi?

a) ganglionit; b) nevrалgiya; c) nevrit; d) miozit;

A) 1a,2,b,3,c B) 1a,2c,3b C) 1d,2,a,3b D) 1a,2c,3d

153. Bosh miya va orqa miyani ustidan o`rab turadigan pardaning yallig`lanishidan kelib chiqqan kasallik nomi berilgan qatorni toping

A) meningit, B) miozit, C) ensefalit, D) poliometit,

154. Bosh miya to`qimasining yallig`lanishi natijasida kelib chiqqan kasallik nomi qaysi qatorda berilgan?

A) meningit, B) miozit, C) ensefalit, D) poliometit,

155. Orqa miya to`qimasining yallig`lanishi natijasida kelib chiqqan kasallik nomi qaysi qatorda berilgan?

A) meningit, B) miozit, C) ensefalit, D) mielit

156. Orqa miya nerv hujayralarining yallig`lanishi (orqa miya bir necha sigmentlari nerv to`qimasining) natijasida kelib chiquvchi kasallik nomi qaysi qatorda berilgan?

A) meningit, B) miozit, C) ensefalit, D) poliometit,

157. Agar poliomyelit virusi orqa miyaning bo'yin qismini zararlasa, tananing qaysi qismida periferik shol (falajlik) yuzaga keladi?

A) oyoqning orqa yuzasi B) oyoqning oldingi yuzasi

C) qo'lning ichki yuzasi D) qo'lning tashqi yuzasi

158. Ensefalit nima?

A) odam tanasining umumiy qaltirashi

B) muskul tolalari qisqarib, bo'shasha olmay qolishi

C) harakatlantiruvchi nerv tolasining yallig'lanishi

D) bosh miya to'qimasining yallig'lanishi

159. Agar poliomyelit virusi orqa miyaning ko'krak qismini zararlasa, tananing qaysi qismida periferik shol (falajlik) yuzaga keladi?

A) oyoqning orqa yuzasi B) oyoqning oldingi yuzasi

C) qo'lning ichki yuzasi D) qo'lning tashqi yuzasi

160. Nevralgiya kasalligi qanday kelib chiqadi?

A) shamollash, gripp kasalligidan asorat qolishidan,

B) viruslar orqali bemor odamdan yuqadi,

C) turli yuqumli kasalliklar, ichburug`, ichterlama kasalliklarining asorati qolishidan kelib chiqadi,

D) gripp, o`rta quloqning yallig`lanishi

161. Nevrit nima?

A) odam tanasining umumiy qaltirasbi

B) muskul tolalari qisqarib, bo'shasha olmay qolisbi

C) harakatlantiruvchi nerv tolasining yallig'lanishi

D) bosh miya to'qimasining yallig'lanishi

162. Meningit bilan xastalangan bemorda qanday o'zgarish kuzatiladi?

1) boshi og'riydi; 2) tana harorati ko'tariladi; 3) ko'ngli ayniydi; 4) qo'l oyoqlari

muskullari tarangligi ortadi; 5)bo‘yin muskullar tarangligi ortadi; 6) hushini yo‘qotishi mumkin; 7) tirishish belgilari yuzaga kelishi mumkin.

A) 1,4,5 B) 1,2,3 C) barchasi D) 3,4,7

163. Meningitni qo‘zgatuvchilar nima hisoblanadi?

A) mikroblar B) virus C) zamburug‘ D) spirtli ichimlik

164. Nevrit (1), nefrit (2), nevrалgiya (3), mielit (4) kasalliklari tarifini aniqlang?

a) buyrakning yallig‘lanishi b) orqa miya to‘qimasining yallig‘lanishi c) sezuvchi nerv tolasining yallig‘lanishi d) harakatlantiruvchi nerv tolasining yallig‘lanishi

A) 1-a; 2-b; 3-c; 4-d B) 1-b; 2-a; 3-c; 4-d

C) 1-c; 2-a; 3-d; 4-b D) 1-d; 2-a; 3-c; 4-b

165. Nevrit, nima?

A) odam tanasining umumiy qaltirashi

B) muskul tolalari qisqarib, bo‘shasha olmay qolishi

C) harakatlantiruvchi nerv tolasining yallig‘lanishi

D) bosh miya to‘qimasinmg yallig‘lanishi

165. Ganglionit bu ... ?

A) bosh miyaning yallig‘lanishi, B) orqa miyaning shamollashi,

C) nerv tugunining kasalligi, D) nerv tolasining kasalligi,

166. Nevrolgiya bu ...?

A) bosh miyaning yallig‘lanishi, B) orqa miyaning shamollashi,

C) nerv tugunining kasalligi, D) sezuvchi nerv tolasining kasalligi,

167. Ganglionit qanday kelib chiqadi?

A) shamollash, zotiljam, gripp kasalligidan asorat qolishidan,

B) viruslar orqali bemor odamdan yuqadi,

C) turli yuqumli kasalliklar, ichburug‘, ichterlama kasalliklarining asorati qolishidan kelib chiqadi,

D) gripp, o‘rta quloqning yallig‘lanishi

XII BOB. OLIY NERV FAOLIYATI

1. Odamning xulq atvori, fikrlashi, ongi, va barcha ruhiy xususiyatlarini nima ta‘minlaydi?

A) bosh miya,

B) oliy nerv faoliyati,

C) bosh miya yarim sharlari, va ularning po‘stlog‘i markaziy nerv sistemasining yuqori qismi nerv markazlarining normal funksiyasi,

D) yarim sharlar , atrof muhit, o‘qish, bilim olish, o‘zaro muloqot,

2. Odamning barcha ixtiyoriy harakatlari fikrlashi va ruhiy holatlari nima orqali amalga oshadi?

A) instinkt, B) reflekslar,

C) gormonlar, D) sezuvchi va harakatlanuvchi nervlar,

3. “ Bosh miya reflekslari” kitobi qachon va kim tomonidan yaratilgan?

A) I.M.Sechenov, 1863, B) I.P.Pavlov, 1914,

- C) B.S.Ivanov, 1938, D) I.I.Mechnikov, 1893,
4. Shartsiz reflekslar qaysi nerv hujayralari tomonidan bajariladi
- A) orqa miya nerv markazlari,
 B) katta yarim shardagi markazlar,
 C) uzunchoq miyadagi nerv markazlari,
